

**Ilyos Ismoilov**

**“SADDI  
ISKANDARIY”  
GENEZISI**

**Birinchi kitob**



**Toshkent – 2025**

**UO‘K: 821.512.133.09-1**  
**BBK: 83.3(50‘)**  
**I-81**

Ismoilov, Ilyos.  
“Saddi Iskandariy” genezisi [Matn] / – I.Ismoilov. – Toshkent: BAYOZ,  
2025. – 216 b.

Ushbu monografiyada mutafakkir Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezisi tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy muammo juda katta bo‘lib, bu kitobda uning birinchi qismi Iskandar haqida asar yozish an‘anasining paydo bo‘lish tarixi va ilk manbalari yoritilgan. Shu maqsadda Iskandar mavzusining ilk diniy sarchashmalari, Aleksandr haqidagi grek-yunon romanlari va Psevdo-Kallisfen an‘anasi tahlilga tortilgan. Manbalar iskandarnoma yaratish an‘anasiga aloqadorlik nuqtayi nazaridan tekshirilgan.

Kitob ilmiy xodimlar, soha mutaxassislari, filologiya yo‘nalishi talabalari va barcha Navoiy muhiblariga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir

Shuhrat Sirojiddinov,  
filologiya fanlari doktori, akademik

Taqrizchilar:

Boqijon To‘xliyev,  
filologiya fanlari doktori, professor

Karomat Mullaxo‘jayeva,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 30-oktabrdagi 4-son bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8160-7-9

UO‘K: 821.512.133.09-1  
BBK: 83.3(50‘)

© «BAYOZ», 2025.  
© Ismoilov I., 2025.

**ISKANDAR HAQIDA ASAR YOZISH AN'ANASINING  
PAYDO BO'LISH  
TARIXI VA ILK MANBALARI**

**MUNDARIJA**

I. Iskandar mavzusining ilk diniy sarchashmalari.....	4
1.1. <i>Bibliya va Aleksandr</i> .....	6
1.2. <i>Bibliyada Gog va Magog</i> .....	25
1.3. <i>Talmud adabiyotida Aleksandr haqidagi afsonalar</i> .....	36
1.4. <i>Talmud adabiyotida Gog va Magog haqidagi afsonalar</i> .....	57
1.5. <i>“Sibylline Oracles”da Gog-Magog haqidagi bashoratlari</i> .....	66
1.6. <i>Iosif Flaviy Gog va Magog haqida</i> .....	68
II. Aleksandr haqidagi grek-yunon romanlari.....	73
2.1. <i>Sitsilyalik Diodorning “Tarixiy kutubxona” asari</i> .....	75
2.2. <i>Kvinti Kursiy Rufning “Buyuk Aleksandr Makedonskiy tarixi” asari</i> .....	91
2.3. <i>Mestriy Plutarxning “Aleksandr” asari</i> .....	108
2.4. <i>Flaviy Arrianning “Aleksandr yurishlari” asari</i> .....	131
2.5. <i>Mark Yunian Yustinning “Pompey Trogning “Filipp tarixi” kompozitsiyasi epitomalari” asari</i> .....	153
III. Psevdo-Kallisfen an'anasi.....	166
Xulosalar.....	191
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	200

## I. ISKANDAR MAVZUSINING ILK DINIY SARCHASHMALARI

Adabiyot tarixi jahon xalqlari tarixi bilan bevosita aloqador bo‘lib, uning taqdiri insoniyat kamoloti va tanazzuli bilan parallel kechadi. Dunyo adabiyotining mavzular galereyasi ham shunga muvofiq xilma-xil, lekin ularning orasida abadiy mavzular ham mavjud. Shulardan biri jangnoma yoki shohnoma mavzusi bo‘lib, uning sarchashmasi mashhur sarkarda, podshoh yoki pahlavonlar hayoti-faoliyati hisoblanadi. Jahon adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan, adabiyot tarixida muayyan an’ana yoki turkum asarlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan bunday qahramonlar u qadar ko‘p emas. Tarix sahifalarida nomi abadiy saqlanib qolgan va butun dunyoda adabiy shon-sharaf qozongan shunday sanoqli qahramonlardan biri Iskandar<sup>1</sup> bo‘lib, Sharq-u G‘arb adabiyotiga birdek ta’sir ko‘rsatgan bunday siymoni qayta uchratish mushkul. Dunyo bo‘ylab Aleksandr romanlarining 24 tildagi 80 dan ortiq versiyalari mavjud ekanining o‘ziyoq ushbu mavzu naqadar keng tarqalganini tasdiqlaydi<sup>2</sup>.

Iskandar mavzusi<sup>3</sup> sinkretik tabiatga ega bo‘lib, uning ildizlari turli xarakterdagi sarchashmalarga borib tutashadi:

- 1) Iskandarning payg‘ambar yoki valiyliги diniy manbalarga;
- 2) Iskandar mavzusining ayrim motiv va epizodlari folklorga;
- 3) Iskandarning jahongirliги tarixiy manbalarga;
- 4) Iskandarning donishmandliги falsafa yoxud hikmat adabiyotiga aloqador.

Ushbu mavzuni tadqiq etishning murakkabliklaridan biri ham Iskandar haqidagi asarlar va Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida ushbu xarakterdagi ma’lumotlarning qorishiq holda kelishidir. Ularni jiddiy farqlash, to‘g‘ri tushunish va talqin etish uchun har birining genezisini bilish, tarixiy

<sup>1</sup> Bu shaxs Sharqda *Iskandar* yoki *Iskandar Zuylqarnayn*, G‘arbda esa *Alexander The Great* deb ataladi.

<sup>2</sup> The Book of the gests of Alexander of Macedon. Sefer Toledot Alexandros ha-Makdoni. A mediaeval hebrew version of the Alexander romance by Immanuel ben Jacob Bonfils. Edited and translated with introduction and notes by Israel J. Kazis, Ph.D. – Massachusetts: The mediaeval academy of America, 1962. – P. 1.

<sup>3</sup> Biz tadqiqot davomida “Iskandar mavzusi” deganda, keng ma’noda, Iskandar (Aleksandr, Zulqarnayn) tarixi haqida yozilgan asarlar, shu masalaga oid asar yozish an’anasini, tor ma’noda, Alisher Navoiy ijodida uchrovchi Iskandar qissasiga oid masalalar va uning eng muhim jihatlarini nazarda tutamiz.

evolutsiyasini kuzatish zarur. Bu jarayonda mavzuga aloqador faktlarni bilishning o'zi kamlik qiladi, shu bois diniy, tarixiy, falsafiy va folklor sujetlar, obrazlar, motivlarning badiiy adabiyotga transformatsiyasi hamda badiiy adabiyotdagi tadrijiy takomilini tizimli kuzatish, o'zgarishlar, an'anaviy va yangi jihatlarni belgilab borish shart. Iskandar mavzusida asar yozgan ijodkorlarga mana shunday keng qamrovli tahlillardan kelib chiqib baho berilsa to'g'ri bo'ladi.

Bizningcha, Iskandar mavzusi va shu mavzuda asarlar yaratish an'anasiga asos bo'lgan manbalarni xronologik prinsip asosida tadqiq etish ko'zlangan maqsadga olib boradi, chunki xronologiya muayyan mavzu va undagi obraz, sujet, motivlar genezisi va evolutsiyasini kuzatish, ularning adabiyotga o'tishi va adabiyotdagi badiiy transformatsiyasi, badiiy talqin etilish jarayonini tahlil etish uchun juda muhim. Ushbu mavzu tarixiga oid ilk qaydlar diniy ta'limotlar bilan bog'liq bo'lgani bois ishni mavzuning diniy asoslarini o'rganishdan boshlaymiz. Bu tarixiy davr nuqtayi nazaridan to'g'ri. Qolaversa, mavzuga aloqador mavjud tarixiy manbalar u yoki bu dinga e'tiqod qiluvchilar yoki ularning ta'siri ostidagi odamlar tomonidan yozilgan bo'lib, aksar hollarda haqiqiy tarix mualliflarning e'tiqodi, mafkurasi nuqtayi nazaridan o'zgarishlarga uchragan. Bunday o'zgarishlarni ilg'ash uchun ham asar muallifining e'tiqodi va mafkurasini bilish darkor, ana shunda turli manbalar orasidagi qarama-qarshi jihatlar, keskin farqlarni izohlash imkoni yuzaga keladi.

## 1.1. Bibliya va Aleksandr

Iskandar (Alexander)ga daxldor ma'lumotlar uchrovchi ilk manba xronologik nuqtayi nazardan Bibliyadir<sup>4</sup>. Bibliyaning eramizdan avvalgi XIII asrdan to I asrga qadar ibroniy tilida yozilgan deb hisoblanuvchi Eski Ahd qismida Iskandar bilan bog'liq ma'lumotlar keladi. Ular Eski Ahdning kononik va nokononik kitoblarida uchraydi. Xususan, Iskandarga oid ilk ma'lumotlar va xabarlar qayd etilgan "Daniil" (Doniyor) payg'ambar kitobi kononik kitob hisoblansa, Iskandar haqida xabarlar kelgan "Makkabiylarning birinchi kitobi" esa nokononik kitob hisoblanadi. Biz avval kononik, keyin nokononik kitoblarda kelgan mavzuga daxldor xabarlarni tadqiq etamiz.

Bobil imperiyasida surgunda yashagan, hukmdor Navuxadnazar tushlarini ta'bir qilib saroyda e'tibor qozongan Daniil Aleksandr yurishlaridan ancha oldin yashab o'tgan bo'lsa-da, ular bir-biri bilan uchrashgan deb ishoniladi. "Daniil" kitobining muallifi Daniil (Doniyor) payg'ambar ekani aytiladi, lekin aksar bibliyashunoslar fikricha, bu kitob Daniil payg'ambar yashagan davrdan ancha keyin yozilgan. Daniil tarixan eramizdan oldingi VII – VI asrlarda yashagan, lekin filologlar kitobning tili, undagi grammatik shakllar IV asrdan keyingi davr tiliga juda yaqin ekanini tasdiqlashadi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu kitobning yozilishini eramizdan avvalgi II asrda yuz bergan Makkabiylar qo'zg'aloni bilan ham bog'lashadi.

"Daniil" payg'ambar kitobi Bibliyaning apokaliptik<sup>5</sup> kitoblarining birinchisi bo'lib, uning bosh g'oyasi – kelajakda insoniyat xalaskori keladi va Allohning hukmronligini o'rnatadi, shundan so'ng yer yuzida butparastlar qolmaydi degan qarashdir. Daniilning ta'biriga ko'ra, Allohning hukmdorligi to'rtta qirollik qulaganidan so'ng o'rnatilishi kerak. "Daniil" kitobiga xos asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, undagi voqealar sirli kelajak haqida sirli uslubda hikoya qilinadi, bayonda allegorik xarakter va ramziylik yetakchilik qiladi. Mazkur jihatlar Aleksandr haqidagi xabarlarni tushunishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

<sup>4</sup> The Holy Bible. New international version. – Lutterworth: Gideon, 2000. – P. 942 – 946.

<sup>5</sup> Apokaliptik – kelajak haqida bashorat qiluvchi, fantastik.

“Daniil” kitobi umumiy XII bo‘lim (sura)dan iborat bo‘lib, u ikki qismga ajratiladi:

- 1) 1 – 6 – tarixiy qismlar;
- 2) 7 – 12 – vahiylar va uning ta’birlari kitobi.

Ushbu kitobning 6- va 8-bo‘lim (sura)lari biz tadqiq etayotgan mavzuga bevosita aloqador. Xususan, 5-bo‘lim so‘ngida Daniil Bobil hukmdori Belshazar tushini ta’birlar ekan, Belshazardan so‘ng taxtga 62 yoshli Doro o‘tirishini bashorat qiladi. 6-bo‘limda payg‘ambar Daniil va qirol Doroning munosabatlari, Bobil imperiyasi Midiya va Fors qo‘shinlari tomonidan egallangach, Daniil saroyda yanada katta shuhrat qozongani, Daniilga qarshi satraplar va hokimlar tomonidan uyushtirilgan fitna, Doroning Daniilga yaxshi munosabati kabi voqealar bayon qilinadi. Bu qismda Doro bilan bog‘liq qaydlar uchrasa-da, Aleksandrqa aloqador ma’lumotlar kelmagan.

Kitobning 7-bo‘limi bilvosita Iskandar mavzusi va undagi muhim motivlardan biri “shox” (muguz) bilan aloqador. Sharq adabiyoti, ayniqsa, folkloridan yaxshi ma’lumki, hikoyat, ertak va ayrim epizodlarda Iskandarning shoxi borligi, bu uning boshqa insonlardan mumtozligi va bu doim sir tutilgani haqida hikoya qilinadi. Albatta, qadimgi xalqlarda podshohlarga xudolar va osmonlar homiylik qiladi, ular sirli kuch-qudrat sohibi degan qarash mavjud bo‘lgan, natijada ularda boshqalarda uchramaydigan, noodatiy belgilar mavjud deb ishonilgan. Boshqa tomondan, bunday qarashlar xalq orasida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmay, ularning muayyan asoslari ham mavjud edi. Xususan, “Eski ahd” tarkibidagi “Daniil” kitobining 7-bo‘limida *hukmdorlik*, *podshoh* va *shox* motivlari o‘zaro bog‘liq holda tasavvur qilinganini ko‘rish mumkin.

Daniil ushbu bo‘limda to‘rt maxluq haqidagi vahiy(tushi)ni shunday hikoya qiladi: 2 “Men tushimda bir vahiy ko‘rdim. Osmonning to‘rt tomonidan esayotgan qattiq shamol ulkan bir dengizni to‘lqinlantirayotgan edi. 3 O‘sha dengizdan bir–biriga o‘xshamaydigan to‘rtta bahaybat maxluq\* chiqdi. 4 Birinchisi sherga o‘xshagan edi, uning burgut qanotlariga o‘xshagan qanotlari bor edi. Men maxluqni tomosha qilib turgan edim, birdaniga qandaydir bir kuch uning qanotlarini uzib tashladi, o‘zini esa

ko'tarib odamzodga o'xshatib ikki oyog'ida turg'izib qo'ydi. O'sha maxluqqa inson ongi berilgan edi\*. 5 Ikkinchi maxluq ayiqqa o'xshar edi. U og'ziga uchta qovurg'a suyaklarini tishlab olgan edi. U hamla qilishga shaylana boshlaganda, unga shunday buyruq berildi: "Qani, ol, to'yguningcha go'sht yegin!" 6 So'ng qoplonga o'xshagani paydo bo'ldi. Bu maxluqning to'rtta boshi va orqasida qush qanotiga o'xshagan to'rtta qanoti bor edi. Unga hukmronlik qilish huquqi berilgan edi. 7 Bundan keyin tundagi vahiyda men qo'rqinchli, dahshatli va benihoya kuchli bo'lgan to'rtinchi maxluqni ko'rdim. U o'z qurbonlarini temir tishlari bilan g'ajib, parchalab tashlardi. Qoldiqlarini esa oyoqlari bilan bosib ezardi. Uning o'nta shoxi bo'lgani uchun, u oldingi maxluqlardan ajralib turar edi. 8 Men maxluqning shoxlarini tomosha qilib turganimda, ularning orasidan o'sib chiqayotgan yana bir shoxchani\* ko'rdim. Unga joy berish uchun oldingi o'nta shoxdan uchta tag-tugi bilan uzilib tushdi. Bu yangi o'sib chiqqan shoxning inson ko'zlariga o'xshagan ko'zlari va takabburona gapiradigan og'zi bor edi"<sup>6</sup>.

Daniilning ushbu tushi(vahiysi)dagi to'rtinchi maxluq bilan bog'liq tasvirlarda shox motivi muhim ahamiyat kasb etgan. Kitobda uning ma'nosi shunday tushuntiriladi: 23 Suhbatdoshim menga shunday dedi: "To'rtinchi maxluq bu yer yuzida hukmronlik qiladigan to'rtinchi shohlikning timsolidir. Bu shohlik boshqa shohliklardan ajralib turadi. U butun dunyoni g'ajib, ezib parcha-parcha qiladi. 24 Maxluqning o'nta shoxi — shohlikni boshqaradigan o'nta hukmdordir. Keyinchalik taxtga yangi bir hukmdor o'tiradi. Bu hukmdor oldingi o'nta hukmdordan ajralib turadi va uchta hukmdorni taxtdan tushiradi. ..."<sup>7</sup>.

Birinchi, ushbu xabar Aleksandr haqida xabar kelgan bo'limdan oldingi bo'limda kelgan, ikkinchi, 7-bo'limning 6-oyati (qismi) ham Daniilning Aleksandr haqidagi bashorati deb qaraladi. Unda Daniil tushida to'rtta boshli, qanotli barsni ko'rgani aytiladi va hukmdorlik vaqti kelib unga berilishi bashorat qilinadi<sup>8</sup>. Uchinchi, to'rtinchi maxluq yer yuzida hukmronlik qiluvchi

<sup>6</sup> The Holy Bible, – P. 942 – 944. (Tarjimasi: URL: <http://ibtrussia.org/en/text?m=UZVL&l=Dan.7.1.1&g=0>) (02.06.2022); <http://bibliya-online.ru/kniga-proroka-daniila-glava-7/>) (02.06.2022)

<sup>7</sup> O'sha manba. O'sha sahifa.

<sup>8</sup> The Holy Bible, – P. 942 – 944. (Tarjimasi: URL: <http://ibtrussia.org/en/text?m=UZVL&l=Dan.7.1.1&g=0>) (02.06.2022)

to'rtinchi shohlikning timsoli ekani va u maxluqning 10ta shoxi borligi, bir yangi shox bu maxluqdagi 10ta shoxning 3tasini qo'porib chiqishi keyinchalik taxtga yangi bir hukmdorning chiqishiga ishora ekani aytilmoqda. Umuman olganda, bu yerda *shohlik* va *shox* masalasi chambarchas bog'liq holda tasvirlanadi. Yana bir qiziq jihat shuki, navbatdagi bo'limda Doro va Aleksandr haqida majoziy hikoya qilinarkan, ular shoxli hayvonlar – qo'chqor (Doro) va taka (Aleksandr) timsolida tasvirlanadi. Shox motivi yana ushbu ikki hukmdor sarguzashti bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Iskandar bilan bog'liq eng muhim qaydlar “Daniil” kitobining VIII bo'limida uchraydi. Mazkur bo'limda Daniilning qo'chqor va echki haqidagi bashorati shunday bayon qilinadi: 1 “Shoh Belshazar hukmronligining uchinchi yilida\* menga yana bir vahiy keldi. 2 Bu vahiyda men Elam viloyatidagi Shushan qal'asida\*, Uloy daryosining bo'yida turgan ekanman. 3 Men daryo bo'yida bir qo'chqor turganini ko'rdim. Uning ikkita uzun-uzun shoxlari bor ekan\*. Ikkinchi bo'lib chiqqan shox birinchisiga qaraganda uzunroq ekan\*. 4 Qo'chqor o'zini g'arb, shimol va janubga urib, yo'lida duch kelgan hamma narsani suzar edi. Hech qanday hayvon unga bas kela olmas, uning qurbonlarini qutqara olmas edi. Qo'chqor xohlagan ishini qilar, kuchi tobora oshib borar edi. 5 Buni tomosha qilib turganimda, g'arb tomondan bir taka ko'rindi. Yelday uchib kelayotgan bu takaning tuyoqlari go'yo yerga tegmayotganday tuyular edi. Uning ikki ko'zi orasida ulkan bir shox bor edi\*. 6 U quturganicha qo'chqor tomon yugurdi–da, 7 qahr-g'azab bilan unga tashlanib, suzdi. Takaning zarbasi zo'rligidan, qo'chqorning ikkala shoxi sinib tushdi. Qo'chqor takaga bas kela olmadi. Taka uni yerga yiqitib toptadi, hech kim qo'chqorni undan qutqara olmas edi. 8 Taka nihoyatda kuchayib ketdi, ammo kuch-qudrat cho'qqisida uning ulkan shoxi sinib tushdi. Sinib tushgan shoxning o'rniga dunyoning to'rt tomoniga qayrilgan to'rtta katta shox o'sib chiqdi\*. ... 15 Men ko'rgan vahiyning mag'zini chaqmoqchi bo'lib, boshimni qotirib turganimda, birdaniga oldimda odam qiyofasidagi allakim paydo bo'ldi. ... 18 U gapirayotganda men hushimdan ketib, yuz tuban

yerda cho‘zilib yotgan edim. Ammo u qo‘lini tekkizib, meni turg‘izib qo‘ydi-da, <sup>19</sup> shunday dedi: eshit, men senga oxirzamon paytida sodir bo‘ladigan narsalarni ayon qilaman, o‘sha davrda Xudo o‘z g‘azabini yer yuziga sochishni belgilagandir. <sup>20</sup> Sen ko‘rgan ikki shoxli qo‘chqor — bu Midiya va Fors shohliklaridir. <sup>21</sup> Taka esa Yunon shohligidir. Ikkala ko‘zining orasidagi ulkan shox — bu Yunon shohligining taxtida o‘tiradigan birinchi hukmdordir. <sup>22</sup> Sinib tushgan shoxning o‘rniga chiqqan to‘rtta shox — Yunon shohligi to‘rt qismga bo‘linishini bildiradi. Taxtga o‘tirgan to‘rtala hukmdor oldingi hukmdorga qaraganda zaifroq bo‘ladi”<sup>9</sup>.



**1-rasm. Qo‘chqor va taka kurashi**

Qayd etilganidek, “Daniil” payg‘ambar kitobi ramziy-allegorik tasvir uslubi bilan ajralib turadi. Undagi “to‘rt boshli bars”, “to‘rt shoxli qo‘chqor” allegorik tarzda Aleksandr va uning imperiyasi haqidagi bashoratlarni bildiradi. Ushbu oyatlardagi asosiy tezis hukmdorlik, ammo barcha fikrlarda hukmdorlik, podshohlikning timsoli “shox” (muguz, por) vositasida tasvirlangani e‘tiborga molik.

<sup>9</sup> The Holy Bible, – P. 945 – 946. (Таржимаси: URL: <http://bibliya-online.ru/kniga-proroka-daniila-glava-8/>; <http://ibtrussia.org/en/text?m=UZVL&l=Dan.8.1.1&g=0>) (03.06.2022)

Vahiyning sharhida qo‘chqorning ikki shoxi Midiya va Fors shohligi, ya’ni Doro saltanatining allegorik ifodasi ekani, takaning yakka shoxi (единорог) Yunon saltanati, ya’ni Aleksandr Makedonskiy hokimiyatining allegorik ifodasi ekani ochiq aytilmoqda. Takaning peshonasidan o‘sib chiqqan ulkan shoxning kuch-qudrat cho‘qqisida, tezda sinib, o‘rnidan dunyoning to‘rt tomoniga qaragan shoxning o‘sib chiqishi – Aleksandr saltanatining shiddat bilan kuchayishi, lekin uzoqqa cho‘zilmasligi, uning saltanati o‘zidan so‘ng to‘rtga bo‘linib ketishini anglatadi. Tarixdan Aleksandrning Yunonistondagi imperiyasi o‘zidan so‘ng sarkardalari Ptolemey, Kassandr, Lisimax va Selevklar tomonidan bo‘lib olingani ma’lum. Yana bir jihat shuki, “tarixiy dalillarga ko‘ra, Fors shohi o‘z qo‘shinini boshqara turib, o‘z boshini qo‘chqorning boshi (ko‘rinishidagi dubulg‘a – bosh kiyim) bilan bezatgan, shundan kelib chiqilsa, qo‘chqor tasviri forsiy simvolizm bilan bog‘liq bo‘lishi kerak”<sup>10</sup>.

Mana shunday tasvir va talqinlar asosida keyinchalik sharq adabiyotiga Iskandarning shoxi bor, ba’zan esa Iskandarning ikkita shoxi bor degan tasavvurlar ko‘chib o‘tib keng tarqalgan, bu haqda yangidan-yangi yangilash tasavvurlar ko‘payib boravergan<sup>11</sup>. Darhaqiqat, “shox”, “ikki shox”, “bir shox” motivlari Doro va Aleksandr munosabatlari haqida Eski Ahdda kelgan vahiyalarda mavjud. Bu motivning Sharqda keng ommalashishining yana bir sababi Qur’ondagi “Zulqarnayn” ismi edi. Islom ta’limoti nozil bo‘lgach, Qur’onda xabari kelgan “Zulqarnayn” ismi arab tilida “ikki shoxli” ma’nosini anglatadi deb bilish va Zulqarnaynni Eski Ahdda “bir shoxli” taka timsolida bashorat qilingan Aleksandr Aleksandrni “Iskandar Zulqarnayn” deb nomlash, Iskandar yoki Zulqarnaynning (ikki) shoxi borligi, u haqda ilohiy kitoblarda vahiyalar kelishi uning ilohiy kuch-qudrat sohibi ekaniga ishora qilishi to‘g‘risida ertaklar, afsona-yu rivoyatlar to‘qilgan. Aynan shox motivi keyinchalik Iskandar mavzusining muhim tarkibiy qismiga aylanib, sharq xalqlari folklori va yozma adabiyotiga

<sup>10</sup> Толкование Далласской семинарии. URL: <https://bible.by/dallas/27/8/> (14.04.2021)

<sup>11</sup> Bu haqda batafsil ma’lumot uchun qarang: Ismoilov I. Iskandarning shoxi bo‘lganmi? / Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. № 68. – Toshkent: 2023. – B. 134 – 141.

kuchli ta'sir ko'rsatdi, xamsanavislik an'anasida ham unga oid muhim qaydlar uchraydi.

Daniil payg'ambar vahiyalarida hukmdorlar, xususan, Doro va Aleksandrning taxt talashishi voqeasi bilan bog'liq holda ular Alloh izni bilan hokimiyatga kelgani, umuman, dunyo hukmdorlarining barchasi olamlar podshosi bo'lgan Alloh tomonidan tayinlanishi va podshohlar unga bo'ysunishi zarurligi, yo'qsa Alloh hokimiyatni xohlaganidan olib, xohlaganiga berishi qayta-qayta ta'kidlanadi. Masalan, "Daniil" kitobining II bo'limi 20-21-oyatlarida Daniil payg'ambar Allohga shunday hamd-u sano aytadi:

*"20 "Xudoyimiz dono va qudratlidir, asrlar osha  
Uning nomi ulug'lansin!*

*21 U zamon va davrlarni o'zgartirar,  
Shohlarni taxtdan tushirib taxtga o'tqazar.*

*Donishmandlarga donolik,  
Oqil-u fozillarga bilim berar"*<sup>12</sup>.

Yoki V bobning 21-oyatida shoh Belshazarga o'zining bobosi Navuxadnazar haqida hikoya qila turib shunday deydi:

"21 U insonlar jamiyatidan haydalib, ongsiz hayvonday bo'lib qolgandi. Yovvoyi eshaklar bilan yashab, mol singari o't bilan oziqlangan va osmondan tushgan shudringga cho'milgandi. Oxiri Xudoyi Taolo inson saltanatining yagona Hukmdori ekani va U taxtni xohlagan odamiga berishini katta bobongiz tan olgan edi"<sup>13</sup>.

Har ikki holatda Alloh mutlaq hukmdor ekani, u xohlagan kishidan hukmdorlikni olib, xohlagan kishiga berishi haqidagi haqiqat takrorlangan. Daniil kitobidagi ayni haqiqatlar keyingi davr sharq xalqlari tafakkuri va tasavvurida ham aynan Doro va Iskandar obrazlari bilan bog'liq holda saqlanib qolgan. Masalan, Alisher Navoiy "Iloho, podshoho..." deb boshlanuvchi g'azalida shunday yozadi:

---

<sup>12</sup> The Holy Bible, – P. 936. (Tarjimasi: URL: <http://bibliya-online.ru/kniga-proroka-daniila-glava-2/>; <http://ibtrussia.org/en/text?m=UZVL&l=Dan.2.1.1&g=0>; (05.06.2022)

<sup>13</sup> <http://bibliya-online.ru/kniga-proroka-daniila-glava-5/> (Tarjimasi: URL: <http://ibtrussia.org/en/text?m=UZVL&l=Dan.5.1.1&g=0>) (05.06.2022)

*Qachonkim zohir etsang “tanzi’ ul-mulk”<sup>14</sup>,  
Sikandarning bo‘lub mag‘lubi Doro<sup>15</sup>.*

Ya’ni, (Ey Alloh), “xohlagan kishiga hukmronlik berib, xohlaganidan tortib oladi” mazmunidagi hukming ro‘yobini istasang, Doro Iskandarning mag‘lubi bo‘ladi.

Baytda tilga olingan oyatning to‘liq matnida ikki jihat o‘zaro qarshi qo‘yilgan, birinchi jihat hukmdorlikning istalgan kishiga berilishi va istalgan kishining aziz qilinishi bo‘lsa, ikkinchi jihat hukmdorlikning istalgan kishidan tortib olinishi va istalgan kishining xor tutilishidir. Yuqoridagi baytning birinchi misrasidagi oyat mazmuniga muvofiq ikkinchi misrada Iskandar va Doro obrazlari o‘zaro zid qo‘yilgan. Navoiy aytmoqchiki, hukmdorlikning Iskandarga berilishi va Iskandarning aziz tutilishi hamda hukmdorlikning Dorodan tortib olinishi va Doroning xor tutilishi – Tangrining xohishi bilan yuz bergan, chunki Alloh har narsaga qodir.

Albatta, Eski Ahdda qayd etilgan bu fikrlar bilan Navoiyning shaxsan tanish bo‘lganini isbotlash imkonsiz va bunga zarurat ham yo‘q, biroq insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilohiy kitob bo‘lgan Eski Ahdda Doro va Aleksandr bilan bilvosita aloqador holda qayd etilgan mazkur haqiqatning ayni shaklda Navoiy ijodida qaytalanishini – oradan XX asrdan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, tasodif deyish qiyin. Navoiy baytdagi fikrlarini Qur’ondagi “Oli Imron” surasining 26-oyatiga tayanib, undan iqtibos keltirib qayd etayotgan bo‘lsa ham, har ikki holatni fakt va haqiqat birlashtirib turadi.

Shu tariqa Eski Ahddagi “Daniil” payg‘ambar kitobining biz o‘rganayotgan mavzuga aloqador muhim jihatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. *Doro va Aleksandr to‘qnashuvi haqidagi bashoratlarni jamlagani.*
2. *Masalaning hukmdorlik bilan bog‘liqligi.*
3. *Shox motivi.*

<sup>14</sup> Ayting: “Ey, hukmronlik egasi – Alloh, Sen xohlagan kishiga hukmronlik ato etursan va xohlagan kishingdan hukmronlikni tortib olursan, xohlagan kishingni aziz qilursan va xohlagan kishingni xor tutarsan. Yaxshilik sening qo‘lingdadir. Albatta, Sen hamma narsaga qodirsan”. (Qur’on. Oli Imron surasi, 26 oyat. Abdulazizi Mansur tarjimasini. – T.: Toshkent islom universiteti nashryoti, 2001. – B. 53).

<sup>15</sup> Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. Т.3: Фаройиб ус-сиғар. – Т.: Фан, 1988. – Б. 28.

4. *Tasvirning allegorik-ramziy xususiyati.*

5. *Hukmdorlarning Alloh tamonidan tayinlanish motivi.*

Ushbu besh jihat Iskandar mavzusining keyingi hayoti va evolutsiyasini tushunishda juda muhim. Xususan, keyingi davrlarda sharq xalqlari tomonidan yaratilgan Iskandar qissalarida voqealarning ramziy-majoziy tasviriga alohida ahamiyat berilgani ko‘zga tashlanadi. Bizningcha, iskandarnomalardagi ramziy-majoziy tabiatga ega epizodlarning ko‘pligi Doro va Aleksandr munosabatlarining Bibliyada ramziy-allegorik tarzda tasvirlanishi bilan bilvosita aloqador. Firdavsiy “Iskandarnoma”sidagi *oyna, igna, yog* kabi ramziy timsollar yoxud Nizomiy “Iskandarnoma”si, Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonlaridagi *go‘y, chavgon, kunjut, qush* kabi ramziy-allegorik detal va obrazlar tasvirining deyarli barcha Iskandar qissalarida uchrashi mazkur qarashni tasdiqlaydi.

Eski Ahdda keltirilgan bashoratlarning tabiati va mazmuniga xos yuqoridagi besh jihatdan tashqari yana muhim uch nuqtani alohida e‘tiborga olish lozim. Ushbu uch nuqta Iskandar mavzusining keyingi tadrijiy takomili va badiiy transformatsiyasini tushunishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi:

1. *Aleksandrning Doroni yengishi.*

2. *Doroning hech qanday xiylasiz, xiyonatsiz Aleksandr tomonidan taslim etilishi.*

3. *Aleksandrning Doroni yengishi Allohning amri va xohishi ekani.*

Mazkur uch nuqtaning barchasi asos motivlar sifatida sharq adabiyotida yaratilgan Iskandar haqidagi asosiy dostonlar sujetida saqlanib qolgan, faqat ikkinchi motiv retsepsiya jarayonida katta o‘zgarishlarga uchragan. Ya’ni Aleksandrning Doroni yenggani va Aleksandrning g‘alabasi Allohning amri ekanini Firdavsiy, Nizomiy va Navoiylar kabi ijodkorlar e’tirof etishadi, lekin Doroning yengilish jarayoni, uning sabablari Eski Ahddagi xabarlardan farq qiladi. Sharqdagi iskandarnomalarda Doroning yengilishi masalasi ko‘pincha “xiyonat” orqali izohlanadi. O‘z navbatida, xiyonatning yuz berishi ham ikki yo‘sinda: xiyonatkorlarning shaxsiy tashabbusi va Iskandarning fitnasi tarzida talqin etiladi. Bunda Doroning yengilishi masalasiga xiyonat motivining qo‘shilishi ham qiziq. Bu savolning javobi u

qadar qiyin emas, bunda mag‘lub tomonning mag‘lubiyatni tan olmaslikka urinishi, oz bo‘lsada o‘z obro‘sini saqlashga intilishi ochiq ko‘rinib turibdi. Ushbu masalaga “xiyonat” motivining aynan sharq xalqlari tomonidan qo‘shilgani esa bu fikrni yanada quvvatlaydi. Aynan kim tomonidan qo‘shilgani masalasiga kelsak, Doro o‘sha paytda Midiya va Fors podshohi bo‘lganidan kelib chiqsak, mazkur qo‘shimcha katta ehtimol bilan fors tarixchilari, adiblarining ijodi ekanini tushunish mumkin. Masalan, ko‘plab fors tarixchilari asarlari, shuningdek, Firdavsiyning “Shohnoma”sida ham xiyonat motiviga katta ahamiyat berilgan va Doroning yengilishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bilan izohlangan. Bu orqali “agar xiyonat bo‘lmaganida, Aleksandr Droni yenga olmasdi” degan qarash ilgari suriladi va tarixiy mag‘lubiyatni xaspo‘shlashga harakat qilinadi. Keyinchalik bu motiv sharq xalqlari tarixi va adabiyotiga keng tarqaldi va xamsanavislik an‘anasi, xususan, Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida ham tasvirlandi.

Yuqorida qayd etganimizdek, Eski Ahdning nokononik kitoblari ham mavjud bo‘lib, ular kononik kitoblarga nisbatan kechroq, eramizdan avvalgi IV – I asrlarda ibroniy tilida yozilgan deb qaraladi, lekin bizga qadar yunon tilida yetib kelgan. Nokononik kitoblar ilohiy vahiylar sirasiga kirmaydi, lekin yoshlikda o‘qish uchun foydali deb tavsiya etiladi, chunki ularni tushunish oson, ularda murakkab allegoriyalar uchramaydi. Eski Ahdning mazkur kitoblari cherkov tomonidan qadrlanadi va inson tabiiy aqlining mahsulidan ustun ko‘riladi.

Bibliyadagi o‘n bir nokononik kitobning dastlabkisi bo‘lgan “Makkabiylarning birinchi kitobi” ham Iskandar mavzusiga aloqador. Yuqorida qayd etilganidek, tadqiqotchilar Daniil kitobi yozilishini eramizdan avvalgi II asrda yuz bergan Makkabiylar qo‘zg‘aloni<sup>16</sup> bilan ham bog‘lashadi.

“Makkabiylarning birinchi kitobi”da Aleksandr to‘g‘risida quyidagi qaydlar uchraydi:

**a) 1-bo‘lim(sura)ning 1-9-qism(oyat)larida:**

---

<sup>16</sup> Makkabiylar – dastlab miloddan avvalgi 166 – 160-yillarda suriya yunonlari zulmiga qarshi qo‘zg‘olonga rahbarlik qilgan xasmoniylar sulolasi vakili Iudo Makkabiyning taxallusi. Keyinchalik bu nom Ioarivning oilasidan bo‘lgan yahudiy ruhoniy Mattafiyning boshqa o‘g‘illariga ham qo‘llanila boshlangan, keyin Antiox Epifanni ta‘qib qilishda ishtirok etgan barcha himoyachilarga nisbatan qo‘llanilgan.

1 Kittim yurtidan chiqqan Makedoniyalik Filippning o‘g‘li Aleksandr Fors va Midiya shohi Doro ustidan g‘alaba qozonib, birinchi o‘rinda Ellada (Qadimgi Yunon) ustidan hukmronlik o‘rnatganidan so‘ng,

2 u ko‘plab urushlarni amalga oshirib, ko‘plab mustahkam joylarni egallab oldi va yer yuzidagi shohlarni o‘ldirdi.

3 Va u Yerning chekkalariga qadar borib, ko‘plab xalqlardan o‘lja oldi; yer (yuzi) uning oldida jim bo‘ldi, u va uning yuragi yuksaldi.

4 U juda kuchli qo‘shin to‘plab, mintaqalar, millatlar va hukmdorlar ustidan hukmronlik qildi hamda ular uning o‘lpon to‘lovchilariga aylanishdi.

5 U to‘shakda hasta yotib, o‘layotganini his qilganidan so‘ng,

6 yoshligidan o‘zi bilan birga tarbiya topgan xizmatkorlarining aslzodalarini chaqirdi va tirikligida shohligini ularga taqsimlab berdi.

7 Aleksandr o‘n ikki yil hukmronlik qildi va vafot etdi.

8 Va xizmatkorlarining har biri o‘z o‘rnida shohlik qildi.

9 Va uning vafotidan so‘ng hammasi toj kiydi, ulardan keyin ko‘p yillar davomida o‘g‘illari ham; va yer yuzida yovuzlikni ko‘paytirdilar.

### **b) 6-bo‘lim(sura)ning 1-2-qism(oyat)larida:**

1 Shoh Antiox yuqori hududlardan o‘ta turib, Forsda boyligi, kumush va oltinlari bilan mashhur bo‘lgan Elimais shahri borligini eshitdi.

2 u yerda juda boy ibodatxona bo‘lib, ichida yunonlar ustidan dastlab hukmronlik qilgan Makedoniya qiroli Filippning o‘g‘li Aleksandr qoldirgan oltin qoplamalar, zirh va qurollar mavjud edi (*Tarjima bizniki – I.I.*)<sup>17</sup>.

“Makkabiylarning birinchi kitobi”da kelgan Aleksandr haqidagi ma’lumotlar mana shulardan iborat.

Ushbu qadimiy kitobda aks etgan mavzuga oid muhim faktlar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– Aleksandr Makedoniyalik Filippning o‘g‘li;

– Aleksandr Midiya-Fors qiroli Doroni yenggan va Yunonistonda hukmron bo‘lgan;

---

<sup>17</sup> Первая книга Маккавейская, глава 6. URL: <http://bibliya-online.ru/pervaya-kniga-makkaveyskaya-glava-6/> (25.04.2021)

- Kuchli qo‘shin bilan juda ko‘p yurishlar orqali ko‘plab hududlarni egallagan, shohlarni bo‘ysundirgan;
- Yerning chekkalariga qadar borib, u yerlarda yashovchi xalqlardan o‘lponlar olgan;
- Aleksandr hastalik tufayli (sharobga berilgani uchun bezgakka chalilib<sup>18</sup>) vafot etgan va u o‘limini oldindan sezgan, shu bois saltanatini sarkardalariga bo‘lib bergan;
- Aleksandr 12 yil hukmronlik qilgan;
- Forsdagi Elimias shahridagi ibodatxonada Aleksandrdan qolgan oltin-kumush buyumlar va qurollar mavjud bo‘lgan.

Makkabiylar bilan bog‘liq voqealar xronologik nuqtayi nazardan Aleksandr yashagan davrdan keyin, miloddan avvalgi II asrda sodir bo‘lgan. Tabiiyki, unga Aleksandr tarixiga oid birlamchi manbalardagi ma‘lumotlar ko‘chib o‘tgan bo‘lishi kerak. Lekin Aleksandrning haqiqiy tarixiga oid bizgacha yetib kelgan manbalarning miloddan avvalgi I asr va milodiy I – II asrlarga aloqador ekani inobatga olinsa, “Makkabiylarning birinchi kitobi”dagi ma‘lumotlar tarix nuqtayi nazaridan qimmatli ekani ma‘lum bo‘ladi. Kitobda kelgan Aleksandr haqidagi ma‘lumotlar tarixiy xarakterga ega bo‘lib, ularda Iskandar mavzusining o‘zagini belgilovchi faktlar mavjud.

Ushbu xabardagi birinchi muhim fakt Aleksandrning Filippning haqiqiy o‘g‘li ekanligidir. Bibliyadagi ushbu haqiqat keyinchalik G‘arbdagi tarixiy va badiiy asarlarda o‘zgarishsiz saqlangan bo‘lib, bugungi kunga qadar bu borada bahslar yo‘q. Sharqda esa Iskandar (Aleksandr)ning nasabi masalasi o‘ta bahsli va shubhali talqinlarga ega. Sharqdagi tarixiy asarlarda ham, badiiy asarlarda ham Iskandarning nasabiga doir bir necha xil qarashlar mavjud bo‘lib, ularni yaxlitlab ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Iskandar asrandi farzand.
2. Iskandar Faylaqusning haqiqiy o‘g‘li.

Sharqda “Iskandar Faylaqusning asrab olgan farzandi” degan qarash keng tarqalgan. Bizningcha, mazkur qarash ham Doroning yengilishini xaspo‘shlash bilan bog‘liq psixologiya va qonuniyat asosida yuzaga kelgan.

---

<sup>18</sup> Толкование Далласской семинарии. URL: <https://bible.by/dallas/27/8/> (14.04.2021)

“Makkabiylarning birinchi kitobi”da ham Aleksandrning Midiya-Fors qiroli Droni yenggani qayd etilgan, bu yerda ham hech qanday hiyla haqida gap yo‘q. Mazkur voqelikka hiyla motivining kelib qo‘shilishi haqida yuqorida to‘xtaldik. Aleksandrning Yunonistonda hukmron bo‘lgan, kuchli qo‘shin bilan juda ko‘p yurishlar orqali ko‘plab hududlarni egallagani, shohlarni bo‘ysundirgani kabi haqiqatlar sharq adabiyotida ham saqlanib qolgan, boshqa tarixiy materiallar va badiiy illustratsiya bilan bo‘lsa ham batafsil va to‘g‘ri talqin topgan.

“Makkabiylarning birinchi kitobi”da Aleksandrning Yerning chekkalariga qadar borib, u yerlarda yashovchi xalqlardan o‘lponlar olishi masalasi ham diqqatga sazovor. Bunday talqinlar zamirida Aleksandrning Hindistonga harbiy yurishlari yotadi. Bu kabi qaydlar keyinchalik sharq adabiyotida qayta ishlanib, Iskandar mavzusining muhim tarkibiy qismlariga aylangan Iskandarning zulmatga safari, obi hayot izlab zulmatga kirishi, dunyoning eng chetidagi g‘aroyib o‘lkalarga safar qilishi, u yerda turli ajoyibotlarga duch kelishi kabi tasvirlar yaratilishiga asos bo‘lgan. Albatta, Iskandar mavzusidagi bunday motivlarning ko‘payishida Qur’ondagi Zulqarnayn qissasining ham katta ta’siri bor. Bu qissadagi Ya’juj-Ma’jujlar tasviri va Zulqarnaynning kun chiqish va kun botish taraflarga borgani haqidagi haqiqatlar ayni shunday tasvirlar ko‘payishining sabablaridan biri bo‘lgan.

Makkabiylar kitobidagi Aleksandrning hastalik tufayli (sharobga berilgani uchun bezgakka chalinib) vafot etgani va u o‘limini oldindan sezgani, shu bois saltanatini sarkardalariga bo‘lib bergani haqidagi faktlar ham keyinchalik sharq adabiyotida yaratilgan iskandarnomalar sujetining muhim tarkibiy qismlariga aylangan. Qayd etish kerakki, Aleksandrning o‘limi sababi Bibliyaga yozilgan sharhlarda, asosan, ichkilikka berilish natijasida kelib chiqqan bezgak tufayli deb izohlangan. Masalan, “Dallas seminarining sharhi”da ayni shu fakt qayd etilgan<sup>19</sup>. Bu tarixiy haqiqatga mos. Davrlar o‘tishi bilan Aleksandrning o‘limi sharq adabiyotida, xususan, xamsanavislikda turlicha talqinlarga uchragan. Jumladan, Nizomiy tarixiy haqiqatga yaqin variantni

<sup>19</sup> Толкование Далласской семинарии. URL: <https://bible.by/dallas/27/8/> (14.04.2021)

keltirib, Iskandar bezgakka o‘xshash kasallik bilan kasallangani, bu hastalik bilan ancha kurashgani haqida yozsa, Xusrav va Navoiyda Iskandarning o‘limi tabiiy jarayondek tasvirlanadi va ular Iskandarning vafotini ichkilik bilan bog‘lashmaydi.

Aleksandrning hastalik chog‘ida vafoti yaqinligini sezib, saltanatini sarkardalariga bo‘lib berishi masalasiga kelsak, Eski Ahdda taka peshonasidagi yakka shoh tezda sinib, takaning boshidan to‘rtta shoxning o‘sib chiqishi ramziy ma‘noda Aleksandr hukmronligining ko‘p davom etmasligi va imperiyasi to‘rtga bo‘linib ketishini anglatishi aytilgan. “Dallas seminarining sharhi”da bu bo‘linish quyidagicha amalga oshgani qayd etiladi: sarkarda Ptolomeyga Misr va Kichik Osiyoning qo‘shni hududlari, sarkarda Kassandrga Makedoniya va Gretsiya hududlari, Lisimaxga g‘arbiy Vifiniya, Frigiya, Missiya va Kichik Osiyodagi Lidiya, sarkarda Selevk uchun Iskandar imperiyasining qolgan qismlari, jumladan, Suriya, Isroil va Mesopatamiya berilgan<sup>20</sup>.

Bibliyadagi “Aleksandrning hastalik paytida davlatini o‘z sarkardalariga bo‘lib berishi” motivi sharq xalqlari, xususan, xamsanavislar ijodida ham ayrim o‘zgarishlar bilan saqlanib qolgan. Masalan, Navoiy dostonida aynan to‘rtga bo‘linish detali tushib qolgan bo‘lsa-da, Iskandar vafotidan avval o‘z a‘yonlarini chorlab, ularga davlat idorasi borasida ko‘rsatmalar berishi detali saqlanib qolgan:

*Anga tegrुकim aylabon suvni tay,  
Saodat bila qo‘ydi sohilg‘a pay.  
Su tashviridin jismi betob edi,  
Salomat mizojida noyob edi.  
Xayolig‘a keldiki – ketmak kerak,  
Bu foniy jahon tarkin etmak kerak,  
Qilib elga irsol o‘z dinini,  
Tuzub mamlakat zabt-u oyinini.  
Burunroqki, bo‘lg‘ay ishi iztiror,  
Muluki tavoyifqa berdi qaror.  
Aningdekki, tuzgan kibi ul muluk,  
Qilib yeti yuz yilgacha bir suluk*

<sup>20</sup> Толкование Далласской семинарии. URL: <https://bible.by/dallas/27/8/> (14.04.2021)

*Ki, ul mulk alarg'a qolib necha pusht,  
Chiqormay alardin sipehri durusht.  
Chu ul fikrdin xotirin tindurub,  
Kecha-kunduz orom tutmay yurub (LXXVI).*

Birinchi dan, Navoiyda Bibliyadagi “o‘lim oldidan bo‘lib berish” detali saqlanib qolgan, faqat “to‘rtga bo‘lish” detali Navoiyga qadar yetib kelmagan, ikkinchi dan, Navoiyga kelib hodisaga yangi tafsilotlar qo‘shilgan, jumladan, Iskandarning davlat boshqaruvi (zabt-u oyini)ni belgilab berishi, Iskandar ko‘rsatmalariga amal qilinsa, mamlakat avlodlariga ham qolib, 700 yilgacha hukmronlik qilishlari va “muluki tavoyif”ning joriy etilishi. Navoiy talqinidagi “davlat boshqaruvini belgilash” detalini Bibliyadagi davlatni to‘rtga bo‘lib berish bilan bog‘lab tushunish mumkin. Ammo bu yerdagi Iskandarning ko‘rsatmalariga amal qilinsa, imperiyaning 700 yilgacha sarkardalar qo‘lida saqlanib qolishi va “muluki tavoyif” masalasi mutlaqo yangi detallar hisoblanadi. Aytish mumkinki, ushbu yangi detallar Navoiy ijodiga sharq tarixchilari asarlaridan ko‘chib o‘tgan.

“Muluki tavoyif” atamasi sharq tarixnavisligida to‘rt tabaqa Ajam shohlarining uchinchi tabaqasi bo‘lgan ashkoniylarga nisbatan qo‘llanadi. Bu nom Iskandarning mamlakat boshqaruvini alohida toifalarga ajratishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Muluki tavoyif borasida manbalarda yakdillik yo‘q. Uning yuzaga kelish tarixi haqida Sharqda eng keng tarqalgan talqinga ko‘ra, Iskandar Bayt ul-muqaddasga kelganda ustoz Aristotelga xat yozib, o‘z mamlakati, taxtining kelajagi, xavfsizligi borasida kengashadi. U keyinchalik paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahdidan cho‘chib, barcha o‘zi bosib olgan xududlardagi fozillar, shahzodalar, obro‘li kishilarni qatl etishni maqsad qiladi. Biroq Aristotel bu fikr to‘g‘ri emasligi, bordi-yu shunday yo‘l tutilsa, qo‘l ostidagi xalqlarning adovati yanada kuchayishi, shu bois ularni bir-biriga bo‘ysunmaydigan hokimliklarga bo‘lib tashlash, shu orqali o‘zaro mashg‘ul qilib, vatani daxlsizligini ko‘proq saqlab qolishni maslahat beradi. Iskandar Aristotelning maslahati bilan ish tutib, o‘zi bosib olgan hududlarni bir-biriga qaram bo‘lmagan

hokimliklarga bo‘lib tashlaydi va mana shu toifa tarixlarda “Muluki tavoyif” nomi bilan ataladi<sup>21</sup>.

Demak, Navoiy ijodiga kelib Iskandarning davlat boshqaruvi borasida sarkardalariga bergan ko‘rsatmalari orasiga “muluki tavoyif” detalining qo‘shilishi o‘zining muayyan tarxiy asoslariga ega. Faqat bu asoslar sharq tarixnavisligining mahsuli bo‘lib, uning haqiqat yoki haqiqat emasligi alohida masala. Biroq mantiq nuqaty nazaridan muluki tavoyif borasida kiritilgan yangilik o‘zini oqlagan va o‘quvchida hech qanday shubha, sujetda esa sun‘iylikni yuzaga keltirmagan. Mazkur detal misolida Bibliyada mavjud bo‘lmagan, lekin Navoiy ijodida uchrovchi yangi detallarning hammasi ham uydirma yoki yolg‘on mahsuli emasligini, ular qadimiy va ishonchli sharq tarixchilari asarlaridan ko‘chib o‘tgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rish mumkin.

Eski Ahdda Aleksandrning necha yil hukmronlik qilishi aniq ko‘rsatilgan emas, lekin uning “umri qisqa bo‘lishi” va u qurgan imperiya tezda sarkardalari tomonidan taqsimlab olinishi haqida bashorat mavjud. “Makkabiylarning birinchi kitobi”da bu masalaga aniqlik kiritilib, Aleksandr 12 yil hukmronlik qilganligi haqidagi fakt keltirilgan, chunki bu kitob yozilayotgan davrda Aleksandr allaqachon yashab o‘tgan, uning hayoti haqidagi tarixiy faktlar aniq edi. Yuqoridagi har ikki ma‘lumot: Aleksandrning qisqa umr ko‘rishi va o‘n ikki yillik hukmronlik detallari sharq tarixi, adabiyotiga ham ko‘chib o‘tgan va saqlanib qolgan. Lekin Navoiy o‘z dostonida Iskandarning aynan 12 yil hukmronlik qilganini yozgan emas, balki Iskandar “oz vaqt” hukmronlik qilgan degan qarashga ko‘proq urg‘u beradi (XV). “Saddi Iskandariy” dostonida dengiz safari tasvirida Iskandarning safari bir o‘rinda 12 yil, bir o‘rinda 13 yil davom etgani aytiladi (LXXVII). Har ikki fakt dostonning bir bobida ichida kelgan bo‘lib, Navoiy talqinida bu raqamlar Iskandarning dengizdagi safari muddatini anglatadi. Bizningcha, “12 yoki 13 yillik dengiz safari” haqidagi qaydlar, aslida, “Makkabiylarning birinchi kitobi”da qayd etilgan Aleksandrning 12 yil hukmdorlik qilishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Navoiy 12 yillik dengiz safari haqidagi ma‘lumotni

<sup>21</sup> Dinovariy Ahmad bin Dovud. Axbor at-tivol. Tarjumayi Sodiq Nishot. – Tehron: Bunyodi farhangi Iron, 1361 (h.) – S. 65.

qayerdan olgani bizga noma'lum, lekin tarixan Aleksandr hukmronligining umumiy muddatini anglatgan bu raqam keyinchalik sharq tarixnavisligida chalkashlik tufayli Iskandarning dengiz safarining umumiy muddati sifatida qayd etilgan bo'lishi mumkin.

Navoiyning 12 yilni faqat dengiz safariga tegishli deb qabul qilishining boshqa asoslari ham bo'lgan, masalan, Navoiy Iskandarni bahr-u barni egallagan hukmdor sifatida bilgan va u amalga oshirgan ishlarni haddan tashqari ko'p deb hisoblagan, shu bois buncha hajmdagi ishni 12-13 yilda amalga oshishini mushkul deb qaragan va bunga ishona olmagan. Navoiy bu haqda "Tarixi muluki Ajam"da shunday yozadi: Aksar tavorixda aning umrin o'tuz olti yil va salotinni o'n uch yil bitibdurlar. Ammo maholdurkim, o'n uch yilda ul qilg'an ishcha qilsa bo'lg'ay. Amir Xisrav Dehlaviy "Oyinayi Iskandariy"da aning saltanati zamonin besh yuz yildin ortuq debdur. Ammo Hazrat shayx Nizomiy quddisa sirrihu "Iskandarnoma"da iki qari ma'hud debdur... Va faqir "Saddi Iskandariy"da ul iki buzurgvor qavlini soyir muarrixlar aqvolig'a tarjih qilib, nazm adosig'a qaror beribmen. Har taqdir bila Iskandar podshohe erdikim, andin burung'i va so'ngg'i salotin bu kungacha ul qilg'on ishni qilmadilar<sup>22</sup>. Navoiy tarixiy asarlarga tayanib Iskandar 36 yil yashab, 13 yil hukmronlik qilgan degan fikrni qayd etadi<sup>23</sup>. Nizomiy Ganjaviy Iskandarning podsholik davrini aniq ikki qari<sup>24</sup> desa, Xusrav Dehlaviy Iskandar hukmronligi davrini 500 yildan ortiqroq ekanini aytgan. E'tiborlisi, Navoiy bu o'rinda yuqoridagi fikrlar qat'iy emasligini, nima bo'lganda ham Iskandar boshqa podsholar qila olmagan ishni "oz fursat"da amalga oshirganini ta'kidlaydi. Tarixdan ma'lumki, Aleksandr miloddan avvalgi 356 – 323-yillarda yashab o'tgan, 20 yoshida taxtga chiqqan, qarib 13 yil hukmronlik qilgan va Aleksandr 33 yil umr ko'rgan. Bundan ma'lum bo'lmoqdaki, Navoiy Iskandarning yoshini deyarli tarixiy haqiqatga mos

<sup>22</sup> Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.16. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 217.

<sup>23</sup> Tarixdan ma'lumki, Aleksandr Makedonskiy (356 yil 20 (21)iyul —323 yil 10 iyun) ham juda qisqa – 33 yil umr ko'rgan va 20 yoshida taxtga chiqib, qisqa davr (13 yil)da juda katta ishlarni amalga oshiradi.

<sup>24</sup> Qari (yoki qori) – 1 metr chamasidagi o'lchov birligi. Agar bu o'rinda "qarn" nazarda tutilgan bo'lsa, u o'lchov birligi sifatida *asr*, *davr* ma'nolarini yoki 30 yil, goho 80-100 yilni anglatadi.

ravishda bilgan, hatto, uning qaysi davrda yashab o‘tganini ham aniq tasavvur qilgan.

“Farhod va Shirin” dostonining xotimasida Navoiyning shahzoda Abulfavoris Shohg‘aribga nasihatlari mavjud. Unda Iskandarning yoshiga oid qiziq ma’lumot ham qayd etilgan:

*Sikandar topti chun ilm-u hunarni,  
Ne yanglig‘ oldi ko‘rgil bahr-u barni...  
Iki ming yil o‘tub yuz ming xiradmand,  
Bo‘lub hikmatlari birla barumand<sup>25</sup>.*

Ikkinchi baytdagi “2000 yil”ni aniq fakt sifatida qabul qilsak, bizga Navoiyning 1441 – 1501-yillar oralig‘ida yashagani ma’lum, “Farhod va Shirin” dostoni esa 1483-yil yozilgan. Navoiy agar o‘zi yashagan davrni nazarda tutib, yuqoridagi ma’lumotni bayon qilgan bo‘lsa, Iskandarni milloddan avvalgi IV – V asrlarda yashagan deb bilishi oydinlashadi. Aleksandr Makedonskiy yashagan vaqt millodan avvalgi IV asrga to‘g‘ri keladi va Navoiyning XV asrda yashagani inobatga olinsa, mutafakkirning Aleksandrdan to o‘ziga qadar o‘tgan davr – ikki ming yilni to‘g‘ri ko‘rsatgani oydinlashadi. Mazkur dalil Navoiy tasvirlagan Iskandarning tarixiy Aleksandr Makedonskiy bilan bevosita bog‘liqligini va Navoiyning masalaga ongli yondashganini ko‘rsatadi.

Shu bois Navoiyni Aleksandrning haqiqiy tarixini bilmagan deyish u qadar to‘g‘ri emas. Muhimi, Navoiy Iskandarga oid Sharqdagi asl manbalarning tarixiy Aleksandrغا olib borishini yaxshi bilgan, ammo bu fikrga tayanib Aleksandr va Iskandarni aynan bir shaxs sifatida tushunish ham o‘zini to‘la oqlamaydi. Zero, Sharqdagi Iskandar G‘arbdagi Aleksandrning tegishli tarixiy-adabiy o‘zgarishlarga – transformatsiyaga uchragan obrazi bo‘lib, ularni o‘zaro qiyoslash tarixiy Aleksandrning qanday qilib Iskandarga aylangani, bu jarayondagi shakliy va mazmuniy o‘zgarishlar darajasi hamda ko‘lami, maqsad va vazifalarini belgilash, turli xalqlar mafkuralari sintezini aniqlash nuqtayi nazaridangina to‘g‘ri bo‘ladi.

<sup>25</sup> Navoiy A. Farhod va Shirin. – Toshkent: Fan, 1958. – B. 629.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Alisher Navoiy o‘z ijodida Iskandar mavzusining imkon qadar tarixiy ildizlariga yaqin borishga intilgan. Navoiy Iskandar obrazini turli rakurslarda talqin etar ekan hamisha yanglishishlardan ehtiyot bo‘lishga harakat qiladi va imkon qadar tasvirlayotgan obraziga oid badiiy talqinlarining tarixiy haqiqat bilan muvofiq bo‘lishini xohlagan. Navoiyning bunday prinsipini qaharamonning yoshiga yondashuvida ham ko‘rish mumkin. Yuqorida Navoiyning Nizomiy va Dehlaviy so‘zlarini tarixchilar bergan ma’lumotlarga solishtirib, doston tasvirida haqiqatga yaqinini tanlashi e’tiborga molik. Bu Navoiy “Saddi Iskandariy”ni yozishda Nizomiy, Dehlaviylarning dostonlari bilan batafsil tanishish, Jomiy bilan shaxsan maslahatlashishidan tashqari ular bergan ma’lumotlarni tarixiy asarlar bilan solishtirib chiqqani, ularni haqiqatga yaqinlik darajalariga ko‘ra saralab, ana shu asosda dostonga kiritganini tasdiqlaydi. Demak, Navoiy bu borada hech qanday masalaga ko‘r-ko‘rona yondashmagan, aksincha, zarur deb hisoblagan o‘rinlarini o‘zgartirgan, ularni tarixiy-hayotiy hamda badiiy mantiq asosida yangilab borgan.

Mavzuning Iskandar shaxsi va tarixi bilan bog‘liq Bibliyadagi ildizlari, asosan, mana shulardan iborat va ular Navoiy asarlarida yuqorida ko‘rib o‘tganimiz kabi aks etgan. Bu boradagi dastlabki xulosa shuki, mavzuning ilk diniy asoslari Alisher Navoiy talqinida deyarli jiddiy o‘zgarishga uchramagan, mavzuning bobosujeti saqlanib qolgan va Alisher Navoiy shu asosda diniy-tarixiy haqiqatga yaqin, balki uyg‘un talqinlar yaratgan.

## 1.2. Bibliyada Gog va Magog

Iskandar mavzusining Bibliyadagi ildizlari Aleksandr haqidagi ma'lumotlar bilan tugamaydi. Bibliyada Gog-Magoglar bilan bog'liq tasvirlar ham bo'lib, ular keyinchalik Sharqda Ya'juj-Ma'jujlar va ular bilan bog'liq sujetga kuchli ta'sir ko'rsatgan degan qarashlar mavjud.

Gog va Magog (Hebrew: גֹּג מַגּוּג, *Gōg ū-Māgōg*) yahudiy esxatologiyasida Iso kelishidan oldinroq dunyoni larzaga soladigan ikki xalq sifatida tushuniladi va Bibliyada shaxslar, qabila va joy nomi sifatida tilga olinadi. Gog va Magog haqidagi asosiy ma'lumotlar Bibliyaning uch o'rnida: Eski Ahddagi "Ibtido" va "Hizqil" kitoblarida, Yangi Ahddagi "Avliyo Yuhanno vahiyisi" kitobida uchraydi.

"Ibtido"da Nuhdan tarqalgan dunyo xalqlari to'g'risida so'z borar ekan, Nuh(Ной)ning Som (Сима), Xom (Хама) va Yofas (Иафета) ismli o'g'illari bo'lgani va ulardan qaysi xalqlar kelib chiqqani ko'rsatiladi. Yofasdan kelib chiqqan xalqlar haqida so'z ketganda "Magog" nomi ham tilga olinadi:

### Nuhdan tarqalgan dunyo xalqlari

<sup>1</sup>Nuhning o'g'illari Som, Xom va Yofas to'fondan keyin o'g'illar ko'rdilar. Ularning nasl-nasabi va ulardan kelib chiqqan xalqlar tarixi quyidagichadir:

### Yofasdan kelib chiqqan xalqlar

<sup>2</sup>Yofas nasli: Go'mer, Mago'g, Moday, Yovon, Tuval, Meshex, Tiros va ulardan kelib chiqqan xalqlar<sup>26</sup>.

Eski Ahdda *Magog* so'zi ilk bor mana shu yerda uchraydi va Yofasning o'g'li, bir xalqning nomi sifatida tilga olinadi. E'tiborli tomoni shundaki, bu bo'limda Gog nomi uchramaydi hamda Gog va Magogning aloqasi haqida biror qayd kelmaydi. Magog Yofas naslidan birining ismi sifatida qayd etiladi, lekin uning keyingi taqdiri xususida hech qanday ma'lumot berilgan emas. "Ibtido" kitobi sharhiga bag'ishlangan ishlarda, masalan, "Yangi Jeneva Bibliyasi" nomli sharhda yerlari Kavkaz chegaralariga qadar yoyilgan skiflar Magoglar ekani aytilsa<sup>27</sup>, A.P.Lopuxina

<sup>26</sup> The Holy Bible, – P. 65. (Tarjimasi: URL: <http://ibtrussia.org/en/text?m=UZVL&l=Gen.10&g=0>) (03.03.2022)

<sup>27</sup> Новой Женевской Библии. Бытие 10 глава. URL: <https://bible.by/geneva-bible/1/10/> (03.05.2021)

sharhlarida Magogning Kavkaz chegarasida yashagan skiflar yoki armanlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi aytiladi<sup>28</sup>. Aksar tadqiqotchilar sharq xalqlari ham Yofas naslidan ekanini ta’kidlashadi. Jumladan, mashhur Makdonald sharhlarida shunday deyiladi: “Yofas – undan kelib chiqqan xalqlar: midiyonlar, yunonlar, kiprliklar va boshqalar. Yevropa va Shimoliy Osiyo xalqlari ham bo‘lishi mumkin. Ko‘pchilik olimlar fikricha, sharq xalqlari ham Yofasdan kelib chiqqan”<sup>29</sup>. Bu iqtibosda ikki nuqta e’tiborga molik:

1. Greklar-u yevropaliklarning Yofas avlodi bo‘lishi mumkinligi.

2. Sharq xalqlarining Yofas avlodi deb hisoblanishi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayni shu tipdagi qarashlar sharq tarixnavisligida ham mavjud bo‘lgan va Alisher Navoiyga qadar yetib kelgan, hatto, Navoiy bundan yaxshi xabardor bo‘lgan.

Sharq tarixchilari kabi Alisher Navoiy ham Yofasni “Abul-turk” – turklarning otasi deb hisoblaydi. Xususan, Sharqdagi eng muhim tarixiy asarlar kompelyatsiyasi bo‘lgan “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Navoiy shunday yozadi: “Olam ahli aksari Nuh naslidindur. Bu jihatdin ani ikkinchi Odam debdurlar. Va aning to‘rt o‘g‘li bor erdi: Yofas va Som va Hom va Kan’on. Va bu Kan’on kofir erdikim, Nuh a.s.ga imon kelturmadi va to‘fonda halok bo‘ldikim, “innahu laysa min ahlika” aning sha’nida nozil bo‘ldi. Rivoyat budurkim, Nuh a.s. kemadin chiqqondin so‘ng ul sekson kishi andoq halok bo‘ldilarkim, alar naslidin kishi qolmadi. Nuh a.s. Turon va Xo‘tanni Yofasqa berdi va Eronni Somg‘a va Hindistonni Homg‘a. Bu mazkur bo‘lg‘on mamolik ahli bu uch kishining naslidindurlar. Bu jihatdin Yofasni Abut-Turk va Somni Abul-Ajam va Homni Abul-Hind debdurlar.

Yofasni payg‘ambari mursal debdurlar. Va ani yeti o‘g‘li bor erdi: Buka, Xizr, Suqlob, Rus, Bik, Chin, Kamo. Ba’zi sekiz o‘g‘ul debdurlar va sekizinchi Torax debdurlar. Va Iskandar Zulqarnayn Yofasning to‘rtinchi o‘g‘lidur Rus naslidin”<sup>30</sup>.

<sup>28</sup>Толкование на десятую главу книги Бытия профессора А.П.Лопухина. URL: <http://bibliya-online.ru/tolkovanie-na-desyatuyu-glavu-knigi-byt/> (03.05.2021)

<sup>29</sup>Комментарии МакДональда. Бытие 10 глава. URL: <https://bible.by/mcdonald/1/10/> (03.05.2021)

<sup>30</sup>Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.16. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 106.

Navoiy qayd etgan ushbu tarixiy ma'lumotlarda Bibliya va unga bitilgan sharhlardagi aksariyat ma'lumotlar bilan umumiyliklar mavjud. Navoiy ham to'fondan so'ng insoniyat Nuh alayhissalom va uning uch o'g'li tarqagani, ular Yofas, Som va Homlar ekani, Yofasning yetti o'g'li bo'lgani (**Buka, Xizr, Suqlob, Rus, Bik, Chin, Kamo**)ni qayd etadi. Bibliyada ham Yofasning yetti farzandi bo'lgani (**Go'mer, Magog, Moday, Yovon, Tuval, Meshex, Tiros**) qayd etilgan, garchi o'g'illar soni teng bo'lsa-da, nomlari o'xshash emas. Navoiy tilga olgan ismlar orasida esa Magog ismi uchramaydi, u ham boshqa ismlar kabi o'zgarishga uchragan bo'lishi kerak.

Navoiy keltirgan "Iskandar Yofasning to'rtinchi o'g'li bo'lgan Rus naslidan" degan qarash sharq tarixnavisligida mavjud edi. Iskandarning nasabiga oid ushbu qarash asossiz bo'lmay, u Makdonald sharhlarida qayd etilgan "Greklar-u yevropaliklar, Shimoliy Osiyoda yashovchilar Yofas avlodi"<sup>31</sup> degan qarash bilan bir sarchashmaga ega bo'lishi kerak. Har holda Aleksandr Makedonskiyning tarixan mazkur hududlardan chiqqani haqiqat, shu bois Navoiy qayd etgan Iskandarning ushbu nasabi va Navoiyning bu ma'lumotdan xabardorligi Navoiyning Iskandarini tushinishda muhim signal deb qarashga arziydi.

G'arb va Sharqdagi ko'pgina manbalarda Gog-Magog (yoki Ya'juj-Ma'juj), aslida, turklar yoki mo'gul-tatarlar ekani yoxud aksincha ular turklarning yerlariga bostirib kirishi haqida farazlar uchraydi. Harholda, Magoglar ko'pincha turkiy xalqlar bilan bog'lanadi. Eski Ahdda keltirilgan dunyo xalqlari nasabnomasida Magogning Yofas o'g'li va shu nomdagi xalqning asoschisi sifatida qayd etilgani, Navoiyning esa sharq muarrixlariga tayanib Yofasni "Abul-turk" – "Turklar otasi" deb atagani – mazkur ikki qarash to'g'ri-noto'g'ri ekanligidan qat'iy nazar manbalarda bir-birini tasdiqlab turibdi. Muxtasar aytganda, Bibliyada Magogning Yofas o'g'li sifatida qayd etilishi va Sharqda Yofasning "Abul-turk" deb tan olinishi o'zaro bog'liq hodisalar sifatida keyinchalik manbalarda "Gog-Magog (yoki Ya'juj-Ma'juj), aslida, turklar (yoki mo'gul-tatarlar)" tipidagi farazlar ommalashishiga olib

<sup>31</sup> Комментарий МакДональда. Бытие 10 глава. URL: <https://bible.by/mcdonald/1/10/> (04.05.2021)

kelgan bo‘lishi kerak. Navoiyning “Nuh a.s. Turon va Xo‘tanni Yofasqa berdi” degan qaydi, Yofasning yetti o‘glidan birining ismi “Chin” ekani haqidagi faktlarga e‘tibor qaratilsa, Gog-Magog (yoki Ya’juj-Ma’juj)ning xitoyliklar yoki chinliklar ekani haqidagi farazlar ham, aslida, yuqorida qayd etilgan ikki qarash bilan bir o‘zanga daxldor ekanini tushunish mumkin. Faqat Bibliyada Yofasning o‘gli sifatida qayd etilgan Magog ismining yoniga “Gog” so‘zining kelib qo‘shilishi masalasi biroz chigal bo‘lib, uni faqat Eski Ahddagi Hizqil payg‘ambar qissasi bilan bog‘lab tushuntirish mumkin.

Gog haqidagi ma’lumotlar Hizqil payg‘ambar kitobining 38-va 39-bo‘limlarida uchraydi. 38-bo‘limda Gog haqida, asosan, shunday bashorat qilinadi: Gog – Magog<sup>32</sup> yurtidagi Meshex va Tuval xalqlarining bosh hukmdori, uning qurollangan ulkan, son-sanoqsiz lashkari bor, Tangri unga qarshi, Gogning qo‘shiniga forslar, habashistonliklar va liviyaliklar ham, Gomer xalqi va Shimoldagi Toxarmo yurti askarlari ham qo‘shiladi, Gog lashkari bilan Isroil tog‘larida o‘rnashgan tinch xalqqa dovuldek yopiriladi, bulutdek qoplab oladi, u Isroil yurtiga shimoldan qo‘shin tortib keladi va bosib oladi, buning hikmati shuki, Allohning o‘zi Gogni yuborgan va u orqali xalqlarga muqaddasligini ayon qilib, O‘zini tanitishni istaydi. Alloh payg‘ambarlari orqali o‘z xalqini ularga qarshi bir dushman yuborishini aytib ogohlantirib kelgan, o‘sha dushman hukmdor Gog bo‘lib, Gog Isroilga hujum qilgan kuni Alloh g‘azabga minib, dahshatli zilzila sodir etadi va o‘lat-u qotilliklar bilan Gogni jazolaydi, Gog va uning lashkari ustiga olovli oltingugurt, jala va do‘l yog‘diradi, bu orqali insoniyat Allohning buyuk va muqaddasligini, barcha xalqlarning egasi U ekanini bilib oladi<sup>33</sup>.

Hizqil payg‘ambar kitobining 39-bo‘limida esa Gog haqida quyidagicha bashorat qilinadi: Meshex va Tuvalning bosh hukmdori Gogni Xudo uzoq shimoldan olib chiqib, Isroil tog‘lariga olib keladi va hammasi shu yerda halok bo‘ladi, Xudo Magog ustiga va dengiz qirg‘og‘ida osoyishta hayot

---

<sup>32</sup> Magog so‘zi bu yerda joy nomini bildirib kelgan.

<sup>33</sup> The Holy Bible, – P. 921 – 923. (Tarjimasi: URL: <https://ibt.org.ru/ru/text?m=UZVL&l=Ezek.38.1.1&g=0>; <https://ibt.org.ru/ru/text?m=UZVL&l=Ezek.39.1.1&g=0>) (04.05.2021)

kechirayotgan barcha xalqlar ustiga olov yog‘diradi, o‘shanda barcha xalqlarning Egasi Xudo ekanligini bilib oladilar, shunda Isroil xalqi shaharlardan chiqib, mag‘lub bo‘lgan yovning qurol-aslahalarini yig‘adi, yetti yil davomida ularni o‘tin o‘rniga ishlatishadi, shu tariqa Isroil xalqi o‘z talonchilaridan o‘ch oladi, bu hodisalar ro‘y bergan kuni Gog va uning to‘dasi uchun Xudo bir qabriston hozirlaydi, bu qabriston O‘lik dengizning sharq tomonidagi Sayyohlar vodiysida joylashgan bo‘ladi, u sayyohlarning yo‘lini to‘sib qo‘yadi, shuning uchun sayyohlar o‘sha vodiyni nomini o‘zgartirib, uni “Gog to‘dasining vodiysi” deb ataydigan bo‘lishadi, turli xil qushlar va hamma yovvoyi hayvonlarni yig‘ib, ularga shunday deb aytiladi: qani, kelinglar! Men (Xudo) sizlar uchun qurbonlik hozirlayman, Isroil tog‘larida katta ziyofat uyushtiraman. Sizlar to‘yguningizcha go‘shdan yeb, qondan ichasizlar. Bashan o‘lkasida semirtirilgan qo‘chqor, qo‘zichoq, echki va buqalar bo‘g‘izlanganday, bahodir jangchilar-u jahon hukmdorlari qurbon qilinadi. Sizlar ularning tanalarini yeb, qonini ichasizlar. Men sizlar uchun uyushtiradigan bu ziyofatda sizlar to‘yguningizcha yog‘dan yeysizlar, mast bo‘lguningizcha qondan ichasizlar. Sizlar Mening dasturxonimdan xohlaganingizcha ot va otliqlarning go‘shidan, sipoh va turli xil jangchilarning go‘shidan tanovul qilasizlar<sup>34</sup>.

Ushbu bashoratlaridan ma’lum bo‘lishicha, Gog – bu hukmdorning nomi, Magog esa muayyan hudud-yurtning nomi. U yurtda Meshex va Tuval nomli xalqlar yashagan<sup>35</sup> va ularning hukmdori Gog bo‘lgan. E’tiborlisi, Bibliyaning “Ibtido”sida Yofasning o‘g‘li va shu farzanddan tarqagan elatning nomi sifatida qayd etilgan “Magog” ismi Bibliyaning “Hizqil kitobi”ga kelib yurt nomi sifatida ko‘rsatiladi, ammo “Ibtido”da Yofasning o‘g‘li sifatida ko‘rsatilgan Meshex bu yerda xalqning nomi sifatida qayd etiladi. Magog atamasi “Hizqil kitobi”da elat-xalq nomidan yurt nomiga o‘zgargan va birinchi bor “Gog” so‘zi bilan aloqador holda, birgalikda tilga olingan. Biroq bu kitobda Gog – shaxs nomi, Magog – joy nomi. “Dallas seminari sharhlari”da aytilishicha,

<sup>34</sup> The Holy Bible, – P. 921 – 923. (Tarjimasi: URL: <https://ibt.org.ru/ru/text?m=UZVL&l=Ezek.38.1.1&g=0>; <https://ibt.org.ru/ru/text?m=UZVL&l=Ezek.39.1.1&g=0>) (04.05.2021)

<sup>35</sup> Aksariyat tarixchilar va geograflar Meshex va Tuvalni Turkiya va uning markaziy hududlari bilan bog‘laydilar. Bu haqda qarang: URL: <https://bible.by/mcdonald/26/38/>; <https://bible.by/dallas/26/38/>. (04.05.2021)

“Qadimgi Ahdning biror o‘rnida Gog so‘zi elatning nomi sifatida tilga olingan emas. Gogni konkret bir xalq bilan bog‘lashga bo‘lgan asrlar davomidagi urinishlar esa samarasiz va befoyda bo‘lib chiqqan”<sup>36</sup>. “Hizqil kitobi”ning 38-bo‘limida Magog yurtining hukmdori sifatida ko‘rsatilgan Gog bugungi kunda biz tasavvur qila oladigan podshoh qiyofasida tasvirlanadi, uning barcha podshohlar kabi otliqlari, tish-tirnog‘igacha qurollangan hisobsiz lashkari mavjud bo‘lib, Gogning qo‘shiniga forslar, habashistonliklar va liviyaliklar ham, Go‘mer xalqi va Shimoldagi Toxarmo yurti askarlari ham qo‘shiladi, Gogning maqsadi esa o‘z yerlarini kengaytirish bo‘lgan.

Ushbu qissadagi e‘tiborli nuqtalardan biri – Gogning devor bilan o‘ralmagan qishloqlarga bostirib borishni reja qilishidir: “<sup>10</sup>Egamiz Rabbiiy shunday demoqda: ey Gog, o‘sha kuni sen yomon xayollarga berilasan, yovuz rejalar tuza boshlaysan. <sup>11</sup>Sen shunday aytasan: Men devor bilan o‘ralmagan qishloqlarga bostirib boraman. Xotirjam yashayotgan odamlarga hujum qilaman. Ularning na devorlari bor, na darvozasi, na tambasi bor. <sup>12</sup>Sen xarob shaharlarni tiklagan odamlarni talon-taroj qilasan”<sup>37</sup>.

Ushbu parchadagi “devor” (yoki devor bilan o‘ralmagan qishloq) va “buzg‘unchilik” motivlari ahamiyatga molik. Ayni motivlarni yaxshi ilg‘ab olish keyinchalik Sharqda ommalashgan Iskandar qissalarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ayni ikki motiv Sharqda mavjud bo‘lgan Ya‘juj-Ma‘juj haqidagi qarashlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq bu ikki motiv G‘arb va Sharqda o‘xshash bo‘lsa ham, ularning tasviri, tafsilotlari mutlaqo farqli.

Eski Ahddagi Gogning harakatlarida mistik elementlar ko‘zga tashlanmaydi, u insoniyatga notanish mavjudot emas, balki oddiy bir podsho va o‘ziga ergashgan xalqlar boshchisi. Magog yurti Shimolda joylashgan (Nizomiy va Navoiy ham Ya‘jujlar Shimolda yashaganini aytadi) va uning hukmdori bo‘lgan Gog Xudoning amri bilan Isroil yurtiga “dovul”dek kelib, u yerlarni bosib oladi. Xudo bundan g‘azabga minib, dahshatli zilzila sodir etadi va o‘lat-

<sup>36</sup> Толкование Далласской семинарии. Иезекииль 38 глава. URL: <https://bible.by/dallas/26/38/> (10.05.2021)

<sup>37</sup> The Holy Bible, – P. 921 – 923. (Tarjimasi: URL: <https://ibt.org.ru/ru/text?m=UZVL&l=Ezek.38.1.1&g=0;> (10.05.2021)

u qotilliklar bilan Gogni jazolaydi, Gog va uning lashkari ustiga olovli oltingugurt, jala va dol yog‘diradi, bu orqali insoniyat Xudoning buyuk va muqaddasligini, barcha xalqlarning egasi U ekanini bilib oladi. Gogni o‘zi yuborib, o‘zi jazolashining hikmati ham shu edi. Faqat Gogning “olovli oltingugurt” bilan jazolanish epizodi bayonidagina sirli-mistik tasvir elementlariga guvoh bo‘lamiz. Gogning tarixiy ildizlariga oid “tadqiqotlarda Gog-Magogni Isroil zaminining Shimolida yashovchi qandaydir xalq bilan bog‘lashadi yoki Hizqil vahiyalarining tarixiy manbasini aniqlashga qaratilgan ishlarda Gogning prototipi tarixda Lidiya shohi bo‘lgan Gig (tax. mil. av. 687 – 652-yillarda) ekani ham ko‘rsatiladi. Gerodotning so‘zlariga ko‘ra, u Kichik Osiyodagi hukmronligini G‘arbda Egey dengizigacha va Shimolda Qora dengizgacha kengaytirgan”<sup>38</sup>.

“Hizqil kitobi”ning 39-bo‘limida esa Gog va unga ergashib kelgan xalqlarning qanday jazolanishi hikoya qilinadi. Bu yerda “olovli oltingugurt” detali oddiy “olov”ga o‘zgargan va voqeaga yovvoyi qushlar va hayvonlarga oid tafsilotlar ham qo‘shilgan. Va ularning “sipoh-u hukmdorlar go‘shidan xohlagancha yeb, qonlaridan to‘ygunicha ichishi” haqida bashorat qilinadi. E’tiborlisi, Gog haqidagi qissaga mana shu o‘rindan ilk bor “qonxo‘rlik”, “go‘shxo‘rlik”, “shafqatsizlik” motivlari qo‘shilgan. Keyinchalik Gog va Magog bilan bog‘liq tasvirlarda ayni jihatlar: shafqatsizlik, qonxo‘rlik, yeb to‘ymaslik bu toifaning asosiy xarakterlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo bu sifatlar Gog va uning lashkariga emas, aslida, Xudo tomonidan ularga nisbatan balo sifatida yuborilgan yovvoyi hayvonlar-u qushlarga tegishli.

Ta’kidlash kerakki, Eski Ahdning “Ibtido” va “Hizqil payg‘ambar” kitoblaridagi Gog va Magog bilan bog‘liq tafsilotlar, voqealar bayoni Qur’on va hadislarda kelgan Ya’juj-Ma’juj bilan bog‘liq tafsilotlarga, sujetga deyarli o‘xshamaydi. Bibliyaning Gog haqidagi qissasidagi “qonxo‘rlik”, “go‘shxo‘rlik”, “shafqatsizlik”, “buzg‘unchilik”, “devor” va “shimol” motivlari ular orasida aloqa bo‘lishi mumkinligiga ishora qiladi, xolos. Bu sifatlar Gog va uning

<sup>38</sup> Гог и Магог. Электронная еврейская энциклопедия. URL: <https://eleven.co.il/bible/heroes-and-characters/11219/> (11.05.2021)

lashkariga emas, ular ustiga balo sifatida yuborilgan yovvoyi hayvonlarga tegishlidir.

Ammo Injilga kelib (milodiy II – IV asrlar) Gog va Magog to‘g‘risidagi qarashlar o‘zgarishga uchragan. Injildagi “Yuhanno vahiysi” Eski Ahddagi Gog va Magog haqidagi tafsilotlarni boyitishdan tashqari, unga zid qarashlarni ifodalashi va Sharqda ommalashgan Ya’juj-Ma’juj tasviriga ko‘proq uyg‘unlik kasb etishi bilan e’tiborli. Qayd etish kerakki, “Yuhanno vahiysi” Yangi Ahdga kiritilgan va qonuniy (kononik) hisoblangan yagona apokaliptik kitob hisoblanadi.

Bibliyada Gog va Magog haqidagi qarashlar qanday o‘zgarganini tasavvur qilish uchun, dastlab, Injildagi Yuhanno vahiysining 20-bo‘limida Gog haqida kelgan bashoratlar mazmuni bilan qisqa tanishish lozim. Ushbu bo‘limda Gog haqida, asosan, shunday bashorat qilinadi:

**Ming yil tinchlik bo‘ladi.** Samodan tushgan farishtaning qo‘lida tubsiz chuqurlikning kaliti va katta zanjir bor edi, farishta ajdarhoni tutib, Iblis va shayton deb atalgan bu almisoq ilonni ming yil muddatga kishanlab qo‘yadi, yana xalqlarni aldamasin deb, uni tubsiz chuqurlikka tashlab, qamab qo‘yadi. Ming yil o‘tgandan keyin uni qisqa bir muddatga ozod qilishi kerak edi. Bundan so‘ng, Yuhanno taxtlarni va taxtda o‘tirganlarni ko‘radi. Ularga hukm etish huquqi berilgan edi. Isoning shahodati va Xudoning kalomi tufayli boshi olinganlarning jonini ham ko‘rdim. Bular hayvonga va uning tasviriga sajda qilmagan, peshanalari va qo‘llariga uning tamg‘asini qabul qilmaganlar edi. Ular tirilib, Masih bilan ming yil hukm surdilar. Qolgan o‘liklar ming yil tamom bo‘lgunga qadar tirilmadi. Bu – birinchi qiyomatdir.

**Shayton jazolanadi.** Ming yil tugagach, shayton o‘z zindonidan ozod etiladi. Yerning to‘rt burchagidagi xalqlarni, Gog va Magogni aldab vasvasa qilish va jangga to‘plash uchun zindondan chiqadi. Ularning soni dengiz qumiday son-sanoqsizdir. Ular yer yuzi tekisligiga chiqib, muqaddaslar manzili va aziz shaharni qurshab oldilar. Shu payt Xudo osmondan o‘t yog‘dirib, ularni qirib tashladi. Ularni aldagan iblis esa hayvon va soxta payg‘ambar bo‘lgan olovli va oltingugurtli ko‘lga tashlandi. U yerda ular kecha-yu kunduz, ilalabad azob chekadilar.

**Qiyomat qoyim bo'ladi.** Gog va Magog haqidagi tafsilotlardan keyin Yuhanno qiyomat haqidagi bashoratlarini bayon qiladi, u buyuk bir oq taxt va taxtda o'tirgan Siymoni ko'rgani, Xudo taxti oldida turgan katta-kichik o'liklarni ko'rgani, o'liklarning har biri, kitoblarda yozilgani bo'yicha, qilmishlariga yarasha hukm etilishi, o'lim va tamug' olovning ko'liga tashlanishi, bu olov ko'li – ikkinchi o'lim ekani bayon qilinadi<sup>39</sup>.

Yuhanno vahiysida Eski Ahddagi sujetga ko'pgina yangiliklar kiritilgan. Ular, asosan, quyidagilardan iborat: shaytonning insonlarni aldamasin deb tubsiz chuqurlikda 1000 yil bandi etilishi, shaytonning "ajdar" qiyofasida tasvirlanishi, 1000 yildan so'ng shaytonning qisqa muddatga ozod etilishi va shaytonning turli xalqlar va Gog-Magogni vasvasa qilib jangga to'plashi, Gog-Magogning "dengiz qumidek son-sanoqsiz" ekani, yer yuziga chiqib, muqaddaslar manzili va aziz shaharni qurshab olishlari, olovli va oltingugurtli ko'l tasviri, taxt detali, qiyomatning bashorati. E'tibor qaratilishi kerak bo'lgan birinchi muhim nuqta shuki, Eski Ahdda shaxs, elat, yurt nomi sifatida tilga olingan Magog va hukmdor sifatida ko'rsatilgan Gog Injilda "Gog-Magog" sifatida, ya'ni yonma-yon qayd etila boshlanadi. Aniq qilib aytilsa, Hizqil kitobidagi "Magog yurtidan kelgan Gog" tasviri Injilda "Gog-Magog", ya'ni ikki xalqqa aylanadi.

Injildagi talqinning yangiliklaridan biri Gog-Magogning chiqishi qiyomat yaqinligining alomati sifatida talqin etilishidir, ya'ni Injilda Gog-Magog va qiyomat o'zaro mustahkam aloqadorlik kasb etgan. Eski Ahddagi "Xudoning dushman yuborish haqidagi ogohlantirishlari", "Shimol tomondan kelish", "qonxo'rlik", "shafqatsizlik", "buzg'unchilik" faktlari, Yangi Ahddagi "dengiz qumidek son-sanoqsizlik", "Gog-Magogning ikki xalq ekani", "Gog-Magogning chiqishi qiyomat alomati ekani", tasvirning sirli-mistik tabiati kabi faktlar birlashib Qur'onda zikr etilgan va sharq adabiyotida keng tasvirlangan Ya'juj-Ma'jujning Gog-Magoglarga aloqasi borasida jiddiy ishoralar beradi. Bu borada Iskandar mavzusining Qur'on va tafsirlardagi asoslari haqidagi faslda yanada batafsil to'xtalamiz. Ammo qolgan fakt va

<sup>39</sup> The Holy Bible, – P. 1300 – 1301. (Tarjimasi: URL: <https://ibt.org.ru/ru/text?m=UZIBTL&l=Rev.20.1.1&g=0>) (14.05.2021)

detallarning aksariyati Sharqdagi asosiy qissalarga ko‘chib o‘tmagan. Biroq “olovli oltingugurt” (Ibtido), “olov yog‘ishi”, “olovli ko‘l” va “oltingugurtli ko‘l” detallarining ayrim izlari yoki o‘xshash talqinlarini Firdavsiy va Nizomiy iskandarnomalarida uchratish mumkin.

Bibliyada Aleksandr hamda Gog va Magoglar haqidagi tafsilotlar, asosan, mana shulardan iborat. Bibliyadagi qaydlarni kuzata turib, muhim ikki masalani chetlab o‘tib bo‘lmasligi ayonlashadi:

- 1) Gog va Magogning Aleksandr bilan aloqasi masalasi;
- 2) Gog va Magogning chiqish vaqti masalasi.

Bibliyaning biror o‘rnida Aleksandrning Gog va Magoglar bilan aloqasi, ularning bir zamonda yashagani borasida ma’lumotlar yo‘q, hatto, “Gog” va “Magog” ismlarining yuzaga kelishi va o‘zaro aloqasi ham chigal bo‘lib, ularning qanday ma’nolarni bildirishi borasida chalkashlik bor.

Gog-Magogning chiqish vaqtiga kelsak, Eski Ahdda bu haqda ma’lumot yo‘q, lekin Injilda Gog va Magog urushlari Iso Masihning birinchi kelishidan ming yil o‘tgach sodir bo‘lishi bashorat qilingan (Yuhanno, 20:7). Agar Eski Ahd hamda Injildagi Gog va Magoglarga oid tafsilotlar yagona hodisa (obyekt) haqida deb qabul qilinsa, o‘z-o‘zidan, yaxudiylik va xristianlikda Aleksandr Makedonskiy va Gog-Magoglar alohida-alohida hodisalar, shaxslar, ular zamondosh bo‘lmagan, bir-biriga mutlaqo aloqasi yo‘q deb qaralishi ma’lum bo‘ladi.

Bizningcha, Gog va Magogning Aleksandr bilan aloqadorligi to‘g‘risidagi tasavvurlar, qarashlar Injildan keyingi davrlar mahsuli bo‘lib, bunday qarashlar ilk bor qaysi manbalarda uchrashi haqida quyiroqda fikr bildiramiz. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ayrim Bibliya sharhlovchilari “Hizqil kitobi”dagi “Goglar jangi” va “Yuhanno vahiysi”dagi “Gog-Magoglar jangi”ni ikkita alohida hodisalar deb qarashadi. Masalan, “Dallas seminari sharhlari”da shunday holni ko‘rish mumkin: “Здесь возникает вопрос: идет ли речь о той же самой битве, что и в 38-39 главах книги Пророка Иезекииля, где тоже упоминаются Гог и Магог (Иез. 38:2)? (Bu yerda savol paydo bo‘ladi: Gog va Magog tilga olingan (Hizq. 38:2) Hizqil payg‘ambar kitobining 38-39-boblaridagi jang haqida gap

ketyaptimi?) Bu savolga javob, katta ehtimol bilan salbiy; “Yuhanno vahiysi” (20: 7-9) va Hizqil payg‘ambar kitobi (38-39) turli hodisalarni bildiradi, chunki “Hizqil kitobi”da qo‘shinlar, asosan, Shimoldan keladi va bir necha xalqlarning vakillaridan iborat bo‘ladi, “Yuhanno vahiysi”da aytilgan jangda esa yer yuzidagi barcha xalqlar qatnashadi va ularning qo‘shinlari har tomondan yurishadi. Va bu janglarni tasvirlovchi kontekstlar ham farqli. Shu tariqa, Hizqil shayton haqida ham, mingyillik qirollik haqida ham gapirmaydi. Shuningdek, “Yuhanno vahiysi”da (20:7) urush ming yillikning oxirida bo‘lishi aniq aytilgan, Hizqil esa o‘zi tasvirlagan jangni oxirzamon bilan bog‘laydi”<sup>40</sup>.

Bizningcha, Eski Ahd va Yangi Ahdda hikoya qilingan Goglar jangiga oid tafsilotlar bir hodisaga aloqador bo‘lib, “Dallas seminari sharhlari”da ko‘rsatilgan farqlar ularning alohida hodisalar ekanini tasdiqlash uchun yetarli emas. Masalan, ikki hodisa o‘zaro aloqador emas degan qarashga tayanib Yangi Ahdda Yuhanno nima uchun aynan Eski Ahdda qayd etilgan “Gog-Magog” atamalaridan foydalanganini tushuntirib bo‘lmaydi. Har ikki jangning Xudoga qarshi boshlanishi, osmondan olov yog‘dirilishi kabi motivlar, tafsilotlar ularni o‘zaro mustahkam bog‘lab turadi. Qolaversa, Bibliyaning aksariyat sharhlarida Hizqil va Yuhannolarning Gog-Magoglar haqidagi fikrlari turli hodisalar haqida degan talqin uchramaydi.

Tahlil so‘ngida yuqorida berilgan savolni yana takrorlaymiz: Gog va Magog voqealari hamda Aleksandr Makedonskiy qissasi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik bormi? Bibliyada ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlovchi fakt, qarash yo‘q, ular aloqador hodisalar sifatida ko‘rsatilmagan. Lekin G‘arbda bu ikki hodisa o‘zaro aloqador degan qarashlar mavjud. Bizningcha, bunday qarash va tasavvurlar Injildan (milodiy II – IV asrlar) keyin, aniqrog‘i, milodning V asrlarida shakllangan bo‘lishi kerak. Biz ushbu masalaga yana o‘rni bilan qaytamiz.

<sup>40</sup> Толкование Далласской семинарии. Иезекииль 38 глава. URL: <https://bible.by/dallas/66/20/> (14.05.2021)

### 1.3. Talmud adabiyotida Aleksandr haqidagi afsonalar

Talmud ham iudaizm manbalaridan biri bo‘lib, uni qisqacha iudaizm qonun-qoidalari kodeksi va sharhi deyish mumkin<sup>41</sup>. U asrlar davomida turli ravvin (ruhoniylar) tomonidan shakllantirilgan. Unda iudaizm qoidalari Mishna va Gemaraning suhbatlari, munozaralari asnosida tushuntiriladi. Talmud iudaizm qonun-qoidalari to‘plami bo‘lsa, uning Aleksandrga yoki Iskandar mavzusiga qanday aloqasi bor, degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Gap shundaki, Talmuddagi galaxlarni – diniy amr va qonunchilik qoidalarini amalga tatbiq etish, oson tushuntirish uchun aggadlar (diniy-axloqiy mazmundagi aforizm va masallar, tarixiy voqea va afsonalar)dan foydalanilgan. Aggadik midrashlarga<sup>42</sup> Muqaddas Bitiglarni sharhlash jarayonida biror qahramon yoki vaziyat bilan bog‘liq holda tarixiy afsona, falsafiy masallar, axloqiy-ta’limiy hikoyalar kiritiladi. Biz o‘rganayotgan mavzuga aloqador afsonaviy voqea va epizodlar Talmudning mana shunday qismlarida uchraydi. Ular bilan tanishish o‘rganilayotgan mavzuning ildizlarini kashf etish, mavzuning Sharqqa transformatsiya bo‘lish jarayonini tushunish hamda Sharqda keng yoyilgan ayrim sujet va epizodlar genezisini yoritishga yordam beradi.

Talmudda Aleksandrga aloqador quyidagi sujet va epizodlar mavjud:

1. Aleksandrning Quddusga tashrifi.
2. Aleksandrning xalqlar o‘rtasida hakamlik qilishi.
3. Aleksandrning Negev oqsoqollaridan o‘nta savol so‘rashi.
4. Aleksandrning zulmatga safari.
5. Aleksandr va Amazonlar; oltin non voqeasi.
6. Aleksandrning obi hayotni topib, jannat eshigiga borishi; ko‘z soqqasi.
7. Aleksandrning osmonga ko‘tarilishi.

<sup>41</sup> Talmud (ibr. “ta’lim”) – Mishnu va Gemara suhbatlarini qamrab oluvchi iudaizmning huquqiy va diniy-axloqiy qoidalari to‘plami; Eretz-Isroil va Bobil ruhoniylari tomonidan taxminan sakkiz asr davomida olib borilgan va og‘zaki Tavrotning mustahkamlanishiga olib kelgan, munozaralarni o‘z ichiga olgan asar. Talmud bizning davrimizda mavjud bo‘lgan shaklga kelishi jarayoni olti yuz yildan ortiq davom etgan. U miloddan avval va milodning boshida og‘zaki shaklda mavjud bo‘lgan, milodiy III – VI asrlar davomida sistemalashtirilib, kodeks shaklida yozib chiqilgan.

<sup>42</sup> Midrash – sharh, matn talqini.

8. Aleksandrning dengiz tubiga tushishi.

9. Qirol Kaziya va Aleksandr.

Talmudda uchrovchi Aleksandr bilan bog‘liq asosiy sujet linyalari mana shulardan iborat. Bulardan boshqa epizodlar esa ularning qayta ishlangan, tahrir etilgan yoki qisman o‘zgartirilgan versiyalaridir. Shu bois ularga maxsus to‘xtalmaymiz va asosiy sujet linyalarini tahlil etish bilan cheklanamiz.

**Aleksandrning Quddusga tashrifi.** Samariyaliklar Aleksandrdan Quddusdagi ibodatxonani yo‘q qilish uchun ruxsat olgach, bosh ruhoni Simon Hatsaddik o‘zining ruhoni kiyimini kiyib, bir qator taniqli yahudiylarni ergashtirib, g‘olibni kutib olishga chiqdi va u bilan Antipatrisda uchrashdi. Aleksandr Simonni ko‘rib, uning oyoqlariga yiqildi (tavof qildi) va hayron bo‘lgan sheriklariga bu yahudiy bosh ruhoniyni siymosi jangda doimo u bilan birga bo‘lgani, u uchun kurashayotgani va uni g‘alabaga olib borishini tushuntirdi. Simon fursatdan foydalanib, vatandoshlarining munosabatini oqladi va isyonchilardan uzogroq bo‘lib, ular ma’badda shoh va uning hukmronligi farovon bo‘lishi uchun ibodat qilishlarini e’lon qildi. Aleksandr shu qadar mutaassir bo‘lgandiki, u o‘z qo‘shinidagi barcha samariyaliklarni yahudiylar qo‘liga topshirdi, yahudiylar ularni otlarning dumiga bog‘lab, Gerizim tog‘iga sudrab borishdi, keyin yahudiylar samariyaliklar ma’badini buzishdi<sup>43</sup>.

Ushbu hikoya Talmudda “ruhoniylarga maxsus kiyimlarini ibodatxonadan tashqarida kiyib yurish mumkinmi?” degan savolga oid bahs munosabati bilan keltirilgan. Unda yahudiylar va samariyaliklar o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlangan bo‘lib, Aleksandrning yahudiy ruhoniylar bilan yaxshi munosabatda bo‘lgani, yahudiylar samariyaliklarni qanday jazolaganini ko‘rsatish ham maqsad qilingan. Hikoyada Aleksandrning bosh ruhoniyni tushida ko‘rishi, ushbu siymoning janglarda unga madad berishi kabi jihatlar ham e’tiborga molik bo‘lib, yahudiylar ushbu voqeani tarixiy haqiqat deb hisoblashga moyil.

Iosif Flaviyning (milodiy 37 – 100) I asrda grek tilida yaratilgan “Yahudiylar qadimiyati” nomli kitobida ushbu voqea

<sup>43</sup> Steinsaltz Adin Even-Israel. Koren Talmud Bavli. The Noé Edition. Volume 9: Tractate Yoma (69a). – Jerusalem: Koren, 2013. – P. 338 – 339.

biroz batafsil bayon etilgan, lekin ular asosan o‘xshash. Flaviy qaydlarida ham Talmud adabiyotida bo‘lganidek Aleksandr yahudiylarga hurmat ko‘rsatib, yahudlar Xudosa sig‘inadi va o‘zining zafarli yurishlarini Xudoning marhamati bilan bog‘lab, ishlarini “Daniil vahiyolari“dagi bashoratlar orqali dalillaydi. Umuman, Flaviy Aleksandrning ishlarini Xudo bilan bog‘lashga, ularga ilohiy tus berishga jiddiy e‘tibor qaratadi<sup>44</sup>.

Hikoyada asosiy e‘tibor yahudiy ruhoniylarning ibodatxonada kiyib yuruvchi maxsus kiyimlarini ibodatxonadan tashqarida ham kiyganlarini isbotlash va yahudiylarning qanday qilib samariyaliklar fitnasidan omon qolgani, ularning ma‘badini yer bilan yakson qilgani masalasiga qaratilgan bo‘lib, Aleksandr siymosi bu yerda *tarixiy fon, vositachi shaxs* qiyofasida gavdalangan. Ushbu talqin to‘qima bo‘lib, Aleksandrning haqiqiy tarixi yozilgan manbalarda qayd etilmagan. To‘g‘ri, tarixda Aleksandr yurishlari davomida Falastinni egallagach, G‘azoga ham boradi, qarshiliklarga qaramay shaharni egallab, qatliom uyushtiradi, ayollar va bolalarni qul qiladi<sup>45</sup>. Lekin u yerda yuqoridagi voqea yo‘q. Katta ehtimol bilan, Arrian qayd etgan tarixiy voqea Talmud adabiyotiga yuqoridagi ko‘rinishda transformatsiya bo‘lgan va shu jarayonda ravvinlar bu tarixiy voqeani diniy mafkuralariga bo‘ysundirishgan, qayta ishlab borishgan.

**Aleksandrning xalqlar o‘rtasida hakamlik qilishi.** Ruhoniy Geviha ben Pesisa va uning munozaralardagi zukkoligi, yahudiy xalqi bilan bog‘liq bahslarda qatnashishiga oid voqealar Gemara tilidan keltirilgan ekan, Aleksandr Makedonskiyning ham bu jarayonda o‘ziga xos rol o‘ynagani tasvirlangan. Gemara aytgan hikoyada turli xalqlar Aleksandrga o‘zaro kelishmovchiliklarga hakamlik qilishni so‘rab murojaat qilishadi.

Dastlab afrikalik (ka‘noniy)larning Ka‘non yurti bizga tegishli degan da‘vosi haqida so‘z ketsa, keyingi safar Aleksandr huzurida misrliklar va yahudiylar bahsi bo‘lgani hikoya qilinadi. Unda misrliklar Tavrotdagi “Chiqish” kitobining 12-surasi 36-oyatida aytilganidek, isroil qavmi mamlakatdan chiqib

<sup>44</sup> Флавий Иосиф. Иудейские древности. В 2 т. Т. I. Кн. 1-12. – Москва: «Ладомир», 2002. – С. 637 – 641.

<sup>45</sup> Арриан. Поход Александра. – Москва: Наука, 1962. – С. 101 – 102.

ketayotganda olgan qarzini hali ham bermagani, o'sha oltin-kumushlar berilishini talab qiladi. Geviha ben Pesisa ularga shunday javob beradi: siz Misrda 430 yil davomida qullikda bo'lgan yigirma yoshdan oshgan 600000 yahudiy bajargan ish uchun ish haqini bering (Chiqish 12:37). Geviha shu tariqa misrliklarni ham mot qiladi<sup>46</sup>.

Gemara bu safar Ismoil avlodlari va Katura (Xettura) avlodlari Aleksandr huzurida yahudiylar bilan da'volashganini hikoya qiladi. Ismoil avlodlari aytdilar: "Kan'on yurti (Falastin yerlari – I.I.) bizniki ham, chunki Tavrotda "Va bular Ibrohim o'g'li Ismoilning avlodlari. Misrlik Hojar, Soraning xizmatkori, Ibrohim uchun tug'gan" (Ibtido 25:12), "Va bular Ibrohim o'g'li Is'hoqning avlodlari" (Ibtido 25:19) deb yozilgan. Shuning uchun, yer Ibrohimning merosxo'rlari o'rtasida taqsimlanishi kerak". Geviha ben Pesisa Ismoil avlodlariga dedi: "Va Ibrohim bor narsasini Is'hoqqa berdi. Kanizlarning Ibrohimdan bo'lgan o'g'illariga esa hadyalar berdi va ularni o'g'li huzuridan yiroqqa, sharq tomon, sharqiy mamlakatga yubordi" (Ibtido 25: 5-6). Tirikligida o'g'illariga vasiyatnoma bergan va o'g'illardan birini ikkinchisidan uzoqlashtirgan otaning yuborilgan (o'g'li)ning boshqasi (qolgan o'g'li)ga nisbatan da'vosi bo'ladimi? Ota o'z mol-mulkini taqsimlab bergan"<sup>47</sup>.

Mazkur hikoyalarda Aleksandr Makedonskiy buyuk g'olib, odil hukmdor sifatida gavdalanadi. U yahudiylar hamda ka'noniylar, misrliklar, ismoiliylar o'rtasida tarixiy va munozarali masalalarda hakamlik qiladi. Biroq uning biror masalaga munosabati aks etmaydi, lekin hikoya kontekstidan yahudiylarning asoslari ishonchliroq chiqishiga harakat qilingani sezilib turadi. Unutmaslik kerakki, bu yahudiylar bilan bog'liq afsona, bu yerda boshqa xalqlarning isroil qavmiga nisbatan asosiy da'volari va ularga o'zlarining javoblari, ya'ni mafkuraviy asoslarini ko'rsatish maqsad qilingan. Yahudiylar bu hikoyani tarixiy haqiqatga yaqin deyishsa-da, o'zlari ham hikoyalarning afsonaviy xarakterini rad etishmaydi. Ushbu hikoyalardan Aleksandr o'z davridan bir necha

<sup>46</sup> Steinsaltz Adin Even-Israel. Koren Talmud Bavli. The Noé Edition. Volume 9: Tractate Sanhedrin, Part 2 (91a). – Jerusalem: Koren, 2017. – P. 279.

<sup>47</sup> Steinsaltz Adin Even-Israel. Koren Talmud Bavli. The Noé Edition. Volume 9: Tractate Sanhedrin, Part 2 (91a). – Jerusalem: Koren, 2017. – P. 280.

asr o‘tiboq, jumladan, Talmudda (milodiy I – VI asrlar) afsonaviy obrazga aylanib, “odil hukmdor” va “buyuk hukmdor” sifatida talqin etila boshlanganini anglash mumkin. U turli xalqlar va donishmandlarning olamshumul bahslarida “hakam”, “olamshumul ahamiyatga molik masalalarni hal etuvchi” qiyofasida tasvirlana boshlangan, demak, o‘sha davrlardagi g‘arb xalqlarida Aleksandr haqida shunday tasavvurlar bo‘lgan. Ayni shunday tasavvurlar keyinchalik Aleksandr obrazi bilan birga sharq xalqlari tarixi va adabiyotiga ham o‘tgan, xususan, xamsanavislik an‘anasida keng yoyilgan. Barcha xamsanavislarning asarlarida Iskandar yuqoridagi barcha sifatlarga ega: “odillik”, “muzaffarlik”, “donishmandlar bilan birga yuruvchi” va “xalqlarni qiynayotgan muammolar va olamshumul masalalarni hal etuvchi” obraz sifatida tasvirlangan.

“Sanhedrin” traktatidagi mazkur voqea “Genesis Rabbah” (Bereishit Rabbah: 61)da<sup>48</sup> ham qayd etilgan bo‘lib, faqat unda voqealar biroz o‘zgargan tafsilotlar bilan berilgan. Jumladan, bu yerda voqealar xuddi sud jarayonidagidek tasvirlanadi va Aleksandr sudya sifatida jarayonda faol ishtirok etadi, ruhoniy Geviha bergan savollarga javoblar qaytaradi. “Genesis”da ismoiliylar, ka‘noniylar va misrliklar Aleksandrning huzuriga adolat istab keladi va yahudiylarni sud qilishni talab etadi, Geviha esa shu sudga ko‘rsatma berish va qavmini himoya etish uchun keladi. Bu yerda Aleksandr ko‘proq tarixiy shaxs qiyofasiga yaqin va “xalqlarni qiynayotgan muammolar va olamshumul masalalarni hal etuvchi” obraz sifatida talqin etilgan<sup>49</sup>.

**Aleksandrning Negev oqsoqollaridan o‘nta savol so‘rashi.** Talmudda Gemara Makedoniyalik Aleksandr Negev oqsoqollari (donishmandlari)dan o‘nta masala so‘ragani haqida hikoya qiluvchi epizod mavjud. Unda quyidagi savol-javoblar bo‘lib o‘tadi:

**1-savol.** Aleksandrning Negev oqsoqollariga birinchi savoli shunday edi: Osmonlardan yergacha bo‘lgan masofa uzoqroqmi yoki Sharqdan G‘arbgacha bo‘lgan masofa? Ular dedi: Sharqdan

<sup>48</sup> Genesis Rabbah (Ibroniycha: B‘reshith Rabba) – yahudiylikning mumtoz davridagi diniy matnlar to‘plami bo‘lib, milodning 300 – 500-yillari orasida ayrim qo‘shimchalar qo‘shilgan holda ko‘chirilgan deb tahmin qilinadi. Bu “Ibtido” kitobining rabbinlarga xos qadimiy talqinlari to‘plamini o‘z ichiga oladigan midrash (matn talqini) hisoblanadi. Ya‘ni “Genesis Rabbah” – Tavrotning birinchi kitobi bo‘lgan “Ibtido”ning sharhidir.

<sup>49</sup> Bereshit Rabbah. URL: [https://www.sefaria.org/Bereishit\\_Rabbah.61.7?lang=bi&with=all&lang2=en](https://www.sefaria.org/Bereishit_Rabbah.61.7?lang=bi&with=all&lang2=en) (10.04.2021)